



❖ SO‘Z CHAMANI ❖

Nodir
JONUZOQ





SO'Z CHAMANI



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI


«IJOD» JAMOAT FONDI

84 (50'2)
N 73

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*

Alisher Navoiy

NODIR JONUZOQ



013971 / 1

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

N 73

N 73 Nodir Jonuzoq [Matn] / nashrga tayyorlovchi Aziz Said. –
Toshkent: Akademnashr, 2020. – 128 b.

ISBN 978-9943-6362-1-7

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')

Nashrga tayyorlovchi:

Aziz Said

Nodir Jonuzoq – o'zbek she'riyatida o'z o'rni va ovozigaga bo'lgan shoir. She'rlarining mavzu ko'lami keng, badiiy topilmalari yangi va ohorli, o'xshatishlari o'ziga xos va tabiiy. Satrlar qatidagi samimiyat va seyr o'quvchini ohanraboday o'ziga tortadi, serjilo timsollar she'rxonni o'ziga toldirib, fikriy tanballikdan qutqaradi. "So'z chamani" rukni ostida chop etilayotgan ushbu kitob haqiqiy she'riyat muxlislariga munosib tuhfa bo'ladi deb o'ylaymiz.

IZHOR

*Farzand – ko'kayingdan silqib chiqqan bol,
Shirindir har o'yin, qilig'i, do'stlar.
Faqat oqil bo'lsin, bo'lsin barkamol,
To'q bo'lsin mag'zi-yu iligi, do'stlar.*

*Ko'nglini yoritsin bir ravshan g'oya,
Yurtga qo'rg'on bo'lsin, eliga – qoya,
Axir, tantilikdan qilar hikoya
Ming yillik "Qutadg'u bilig'i", do'stlar.*

*G'amdan yiroq bo'lsin,
Kulfatdan yiroq,
Nursiz davralarda so'nmasin biroq,
O'chmagay dillarda ko'z ochgan chiroq,
Agar toza bo'lsa piligi, do'stlar.*

*Ne olis burjlardan insa-da ziyo,
Yonida soyaday lipillar riyo,
Keksa qimorbozga o'xshar bu Dunyo,
Avraydi qarg'a-yu chilligi, do'stlar.*



*Panohimiz bitta — shu o'ktam diyor,
Yaxshi-yomon kunda bo'lolsak dastyor,
Toabad eminmiz, bekam, baxtiyor,
Xush yoqar sovug'-u ilig'i, do'stlar.*

*Zamon charxpalagi aylanar shitob,
Hayajon zabtida turibman shu tob.
Qo'lingizga tushgan shu yupqa kitob —
Yuragimning bitta tiligi, do'stlar!*

2010

TOPMADIM

Ufqimda qizardi ming chaman,
Aybimni barg ila yopmadim.
G'unchalar munchalar mung chalar,
Sizni men gulshanda topmadim.

Jimirlar, g'imirlar to'rt tomon,
Yuragim yugurar – ko'r tamom,
Olomon lol hamon... Al'amon!..
Sizni men gulshanda topmadim.

Ongimda bong urar ismingiz,
Tongimda tong turar izingiz,
Gullarga achisin ichingiz!
Sizni men gulshanda topmadim.

Yuragim sitilar – sir tilar,
Keling... yo maktubday yirtilar,
Chertilar... Sher talar... She'r tilar...
Sizni men gulshanda topmadim.

Tovusday tovlansa bu dunyo,
Hovuzday g'ovlansa bu dunyo,
Yovlansa-ovlansa bu dunyo...
Sizni men gulshanda topmadim.



Bir kuni uygʻonib chopasiz,
Aybingiz barg ila yopasiz,
Meni gulqabrimdan topasiz –
Sizni men gulshanda topmadim...

1996

MISKIN

Birodarlar,
Mahallangizda
Bir ayol bor –
Befarzand ayol.
Ko'p ko'zikmas... iymonar sizdan,
Og'riqlari o'ziga ayon.

Manglayiga singib ketgan tuz
Kechalari milt-milt eriydi.
Eri yaxshi ko'radi... Afsus...
U ham yaxshi ko'rar erini.

Bir-biridan yashirar tushin,
Yashaydilar bir-birin asrab.
Tushunadi hatto govmushi,
Berar ekkan oqqina hasrat.

Bir miskin u... hayotning barcha
Da'vosiga jimgina ko'ngan.
Bir miskin u... bevafolarcha
Kelajagi o'tmishga do'ngan.

Birodarlar,
Haq hukmi yetib,
Qabog'lari yopilar kuni
Mozoriga beshikda eltib,
Alla aytib ko'minglar uni!..

1997

QISHLOQ

Baribir qaytaman...
Olifta shahar –
yaltiroq yo'llar-u sun'iy guzarlar
ilon-u chayonday chirmashib chaqar...
Dod solib qolsa-da dardsiz go'zallar –
baribir qaytaman,
qaytmasam bo'lmas;
qaytaman eng toza she'rlarim bilan,
qishloq peshvoz chiqar,
chiqar basma-bas
men suygan qizlar ham...
...erlari bilan!

1997

VIDO

O'layapman – ranjimang tag'in,
Qololmayman bu yerda sobit.
Atirgulning shoxchalaridan
Yasaganman o'zinga tobut.

Jar soladi mushfiqim – sabo,
Chorlayverar do'st-u g'animni.
Mehmon bo'lgan Azroil bobo
Shabnam bilan yuvar tanimni.

Hayotimni muqaddas bilib,
Urf-u rusum qilurlar ul-bul.
She'rlarimni tilovat qilib,
Janozamni o'qiydi bulbul.

Yaproqchalar soladi uvvos,
O'ksimasin maysalar nega?!

Ko'milaman eng toza, eng soz,
Eng chiroyli gulning tagiga.

Ko'm-ko'k rangga kiradi jonib,
Chayqaladi zil-zambil hislar.
Yuragimni alvonday yopib,
Tobutimni ko'tarar qizlar!

1997

SEVGI

Nafasingiz – eng xushbo‘y atir,
Orazingiz istamas g‘oza.
Eron qizi – Shahina nadir,
Gulgunroqsiz undan, Shahnoza.

Ko‘zingizda mavj uradi Baxt,
Siz yengilsiz, lekin cho‘kasiz.
Sal jilmaysam – kulasiz qah-qah,
Sal injilsam – ko‘zyosh to‘kasiz.

“Meni shuncha suyasizmi?!” – deb
Rasmingizdan har kech so‘radim.
“Uyaltirmang odamni hadeb”, –
Qizardi u...
Mening suratim –

Sizga neni qilar hikoya?
Bilmaydi-ku ichkin g‘aybimni.
Surat siyrat emas-da, shoyad,
Ko‘pirtirmagandir aybimni...

Men haqimda mayda gaplar ko‘p:
Qancha nozik qo‘lchani o‘pgan...
Siz ishonmang! Hammasi ko‘pik,
Ko‘nglim ayon emas-ku ko‘pga.

Bilasiz-ku kasb-u korimni,
Sevgi deya ne ko'yg'a tushdim.
Unutdimmi yigit orimni?!
Garchi bu kun hammasi tushdir...

Siz ertakdan chiqib keldingiz,
Etagingiz o'par hurlar ham.
Qoshingizda ikkita dengiz,
Har tomchisi jonimga malham.

Yosh to'kasiz – injilsam agar,
Sal jilmaysam – qah-qah kulasiz.
Ey ruhimni kuydirgan axgar,
Qachon menga hamdam bo'lasiz?

Chayqalaman tig'day rasanda,
Tanhoman-ku, keling – toqsiz Siz.
Men Yesenin bo'lolmasam-da,
Shahinadan suluvroqsiz siz!

1998

ICHIKISH

Balki, sen ham uygʻonib shul dam,
Men haqimda qoʻshiq kuylading.
Bezovtaman, ehtimol, shundan,
Quchogʻimda tungi koʻylaging.

Bir islarki – sevgiga yoʻrgak,
Koʻkragimga ogʻir botadi.
Endi uni yalangʻoch yurak
To tonggacha kiyib yotadi...

2001

OʻYIN

Bu qiz bilan har kuni
Oʻynardik bekinmachoq.
Darrov topardim uni
Devorga bekingan chogʻ.

Qoʻl ushlab adirga
Chopar edik hakkalab.
Qaytardik keyin birga,
Qoʻymas edim yakkalab.

Ishonmasdan, koʻzimni
Kafti bilan yopardi.

Bekinardi. Men uni
Osongina topardim.

Kapalakday beqaror,
Ohuday edi qochoq.
Keyin bilsam, aslida
Bu dunyo – bekinmachoq.

Bir kun ogoh qilmasdan
Bir burchakka chekindi.
O‘zi bilib-bilmasdan
Chimildiqqa bekindi.

Ovoz berdim: “Bo‘ldi, chiq,
Qanisan?..” – tinglar edi.
Lekin negadir piq-piq
Chiqmasdan yig‘lar edi.

Kiray desam yoniga,
To‘siq bo‘ldi yangalar.
Igna sanchib jonimga,
Dil dardimni yangilar.

Tashqaridan so‘z qotdim:
“Hammasi o‘yin edi,
Ko‘z yumdim-u yo‘qotdim,
Bu yog‘i to‘ying endi...”



Shundan beri har kuni
Yaramga teginaman.
Uzoqdan ko'rib uni,
Shu zahot bekinaman.

Ergasholmas izimdan,
Ortimdan chopolmaydi.
Ko'rib turar-u zimdan,
Hech qachon topolmaydi...

2002

MASOFA

Derazaga suyanasiz jim,
Og'ir-og'ir surasiz xayol.
Qo'lingizdan keladi tutgim,
Mening uchun eng aziz ayol.

Topilmaydi zig'irday jur'at,
Shubhalarni qilolmayman hal.
Siz – men uchun eng nafis surat,
Men – siz uchun eng sovuq haykal.

Jonlanasiz... Chuvalgan ma'yus
O'ylaringiz olasiz yig'ib.
Tik kelmaysiz menga yuzma-yuz,
Bo'g'zingizga botsa-da yig'i.

Indamasdan ketasiz chiqib,
Poyingizni o'padi yo'lak.
Miq etmayman... Faqat zo'riqib,
O'z-o'zini do'pposlar yurak...

2004

BESLAN

“Siniq oy” dostonidan

Hamon seskanaman, bilmam, na holat?
Hamon uvushadi yuragim... Eslang:
Dunyoni larzaga solgan jaholat –
O’sha yil. 1-sentyabr. Beslan.

Ayon bo’ldi vahshiy to’da matlabi,
Iblisning amriga amal qilishdi:
Kelajak jamuljam bo’lgan maktabni –
Quyoshning ko’ksini qamal qilishdi.

Mitti qo’lchalarga “Alifbe” emas,
Tarqatib chiqishdi bittadan mina.
Tushuntirib bermas edi biron kas –
Bularning gunohi, maloli nima?

Ziyoga talpingan qorako’z jujuq
Kutgani boshqaydi, orzusi boshqa.
Lahzada yuzini qopladi uchuq,
Lahzada qaridi yigirma yoshga.

O, ilk bor his etdim nomard o’limni,
O, ilk bor cho’k tushdim qaltirab tizim.
Go’yo ular ichra ko’rdim o’g’limni,
Go’yo ular ichra yig’lardi qizim...

Nima qilay, qanday bo'layin bir yon!?
Kaftimni Xudoga ochib yolvordim.
Tunlari alahlab, bezovta, giryon
Har kecha... Har kecha Beslanga bordim.

Lekin... sodir bo'ldi mash'um falokat,
Qancha kapalakning hayoti so'ndi.
Onalar dodiga yo'q edi toqat,
Yo'q edi otalar g'amingning so'ngi.

Maktab eshigiga termuldim uzoq,
Zor kutdim (ko'ksinga yurak sig'madi).
Ko'plarning bolasi chiqdi-yu, biroq
Mening o'g'lim bilan qizim chiqmadi...

2005

TELEFON

Qilasizmi menga qo'ng'iroq
Yoki o'zim teraymi raqam?
Sizni juda sog'indim... Biroq
Bahona yo'q yo'qlamoqqa ham.

Aylanadi gumonlar g'uj-g'uj...
Telefon jim,
Yotar bezabon.
Yurak kabi qilmaydi xuruj –
Simlarida oqmaydi-da qon...

2005

TILSIM

Har tong turib oynaga boqsam,
Gulday yuzing bo'ladi paydo.
Chiroylisan, noziksan, oqsan –
Bir ko'rishda etgansan shaydo.

Tinchimayman, bilib qo'y, toki
Topgunimcha bu holning sirin.
Yoki ko'zgu sehrli... Yoki
Men Farhodman... Yoki sen Shirin...

2005

KO'ZGUDAGI AYOL

O'tiribsiz ko'zgu oldida,
Sochlaringiz chuvalgan, ma'yus.
O'tiribsiz ko'zgu oldida –
Dunyo bilan qolib yuzma-yuz.

Qalbingizni qiyma-qiymalar
Tun charxlagan qop-qora xayol.
Sizga taskin izlab qiynalar
Ko'zgudagi chiroyli ayol...

2005

YOSH TO'KASIZ...

Yosh to'kasiz tunlar yashirin,
Yostig'ingiz jiqqa bo'lar ho'l.
Yosh to'kasiz tunlar yashirin,
Ko'zlaringiz – zahar to'la ko'l.

Yosh to'kasiz. Dunyo-chi, loqayd –
Bu dunyodan kechgim keladi:
Yoningizga borib o'sha payt,
Yoshingizni ichgim keladi!

2005

SAYR

Oqish palto, qop-qora etik,
Oppoq chehra, qop-qora ko'zlar...
Aytgin, qanday baxtiyor edik,
Musiqaday oqardi so'zlar.

Boshimizdan zar sochardi tun,
Poyimizda oppoq poyandoz.
Go'yo dunyo olar edi tin,
Ikkimizni tanho qo'yib, soz.

Sovuq qotma deya avaylab,
O'rab qo'ydim qora sharfimni.
Meni butkul so'zamol aylab,
Tinglar eding yurak zarbimni.

Jim ketarding. Men esa yonib,
So'z sochardim – qolmasdi yodda.
Koshki, derdim, butun dunyoni
Kezib chiqsam sen-la piyoda.

Qo'llaringda qop-qora qo'lqop,
Oq qo'lingdan o'pay deb yechdim.
Bu dunyoda men uchun shu tob
Sendan boshqa yo'q edi hech kim.

Ey yo'llari toyinchoq qorqiz,
Dunyo – bozor: ol-ho, ur-yiqit.
Taloto'pda qolma deb yolg'iz,
Bo'lay devdim, axir, qoryigit.

Va lekin sen – xushro'y, rasida:
Go'zallarga yaktolik udum.
Ko'zlaringning alangasida
Erib ketdi shamday vujudim.

Tun toraydi. Ketaman deding,
Sochlaringni sekin tuzatib.
Oh, jonimdan ayrilgan edim,
Beruh qoldim seni kuzatib.

Ko'rpasini tortdi qora tun,
Oyoq cho'zdi uzun shaharga.
Yaxshi dam ol. Bo'lmagin mahzun –
Yetajakmiz oppoq saharga...

2006

XAYR

Senga sevgim keldimi malol,
Yuk bo'ldimi va yoki qafas?
Ketayapman, mayli, yaxshi qol,
Endi seni tinch qo'yaman,
Bas!

Yaxshi qolgin!
Alamlar yutib,
Qovrilmagin hasratda, dardda.
Kel, so'nggi bor qo'lingdan tutib,
O'pib qo'yay oxirgi marta.

Yaxshi qolgin,
Xayr, ey dilbar,
Sen – men anglab yetmagan Sirsan!
Haydamagil,
It kabi agar
Tushlaringga adashib kirsam...

2006

CHIROYLISIZ...

Chiroylisiz. Go'zalsiz. Mag'rur.
Tashlaysiz goh ko'z qiringizni.
Talpinadi yurak qurmag'ur,
Bilsam deydi dil siringizni.

Ammo sira buzmay siz pinak,
Xotirjamsiz. Sokinsiz. Sipo.
Go'yo yo'q siz yetmagan tilak,
Go'yo sizda dunyo baxti jo.

Holbuki, har lahza betinim
Qalbingizda otilar vulqon.
Garchi qushday yursangiz-da jim,
Qoningizda uxlaydi to'fon.

Beparvosiz. Vazmin. Osuda.
Oqqush kabi qilasiz pardozi.
Go'yo beo'y, beg'amsiz juda,
Go'yo issiq hislaringiz oz.

Adashdimmi yo ko'ngil berib?
O'ylayversam – yuragim og'rir.
Poyingizga to'kildim erib...
Chiroylisiz. Go'zalsiz. Mag'rur.

2006

TASHRIF

Xonamni bir xushbo'y ifor to'ldirar –
To'liqinday urilar farang atiri.
Shu hid meni qayta-qayta o'ldirar,
Shu hid bilan yana qolaman tirik.

U kelar... Bir dunyo quvonch olaman,
U ketar... Bo'g'adi yana tor muhit.
Ertagacha, shukr, tirik qolaman,
Ertagacha menga ozuqa shu hid...

2006

QO'NG'IROQ

Chap ko'ksimda nafis qo'ng'iroq,
Kecha-kunduz tinmay kuy chalar.
Uxlolmayman bir lahza... Biroq
Dong qotadi uzun ko'chalar.

Balki, yetib bormasmi uni –
Bo'g'riqib, oh, kuchangim kelar.
Ko'kragimdan uzvolib uni,
Baland-baland kuy chalgim kelar...

2006

XAT

Aya,
Ayajonim,
Mehribon ayam,
Ayting, yuribsizmi
Masrur, salomat?
O'zingizni asrang,
Men uchun ayang:
Siz borsiz – meni tark aylamas omad.

Mehringiz tuyaman har bir qarichda,
Olisdan sezaman duongiz kuchin.
Sizdan nur tashiydi yuz ming farishta
Mening yo'llarimni yoritmoq uchun.

O'ylanmang,
Tetikman,
Ishim joyida –
Ko'ksimda orzular yotibdi chaqnab.
Zuvalam pishganmi oyning loyidan,
Gohida mehrga qolsam-da chanqab –

Olamga muhabbat purkagim kelar,
Sevgiga g'arq bo'lsin deyman ona Yer.
Qalbimni parilar qo'lma-qo'l elar,
Tunlari uxlolmay yozarkanman she'r.

To'g'ri, siqilaman ba'zan,
Nima naf,
Kimga kerak, deyman, quyma baytlarim?
Shoirlik men uchun edi-ku sharaf
Yoningizda o'ynab yurgan paytlarim...

Sizday silamadi boshimni hayot,
Qozonda qovrildim, qaynadim, pishdim.
Va bugun o'zimga qarasam, hayhot,
Nigohim begona odamga tushdi.

U menga o'zicha beradi tanbeh,
Og'amday turtkilab yo'liga solar:
«Bolangga osh bo'lmas qofiya, tashbeh,
Nima kerak senga quruq g'avg'olar?!

Odamday yashagin,
Yasha sho'x-xandon,
Axir, yo'q emas-ku senda layoqat.
Qadringga yetishmas, kuysang-da chandon,
Uy qur,
Mashina ol,
Qilgin sayohat..."

Unga jim boqaman,
Qilmasman ta'na,
Uni tushunaman – o'zicha haqdir.

Lekin nima qilay, ayajon, yana
Meni olovlariga yo'llasa taqdir?!

Netay yasholmasam xotirjam, sokin,
«Qo'lingga qalam ol, – desa bir ovoz, –
Har bir so'zimizni yozib ol yoki
Biz sendan butunlay kechajakmiz voz?»

Aya, bu men uchun eng og'ir kulfat,
Aya, menga bundan ortiq g'am yo'qdir.
U – mening ruhimga azaliy ulfat,
U borki, qornim ham, qalbim ham to'qdir.

Ko'zimga ko'rinmas gohida dunyo,
Uning vasli bilan yashayman sarmast.
U kelsa – mo'jiza bo'ladi bunyod,
U kelsa – har qanday og'riq pisandmas.

Bilaman,
Siz uchun so'zlarim chigal,
Behuda o'yinga o'xshaydi, balki.
Go'yoki kirvolib g'ilof ichiga,
«Koinot – shu», – deya etyapman talqin.

Biroq maslagim shu,
Tetikman, aya,

Qo'limdan tutganday Xizrning o'zi.
Dam-badam to'siqlar, g'ovlar chiqsayam,
Manzilga yetamiz yovlardan o'zib.

Mehringiz tuyaman har bir qarichda,
Olisdan sezaman duongiz kuchin.
Sizdan nur tashiydi yuz ming farishta
Mening yo'llarimni yoritmoq uchun.

Qalbimday chechakka to'lganda qishloq,
Qonimday gupirsa loyqa ariqlar,
Men kirib boraman toychoqday kishnab,
To'zg'ib ketar barcha alam, og'riqlar.

Ungacha chidang Siz,
Charchamang, aya,
Masrur bo'ling doim,
Bo'ling salomat.
O'zingizni asrang,
Men uchun ayang:
Siz borsiz – meni tark aylamas omad...

2007

MAKTUB

Singillarimga

1

Singlim –
Nazokat-u
Nigora singlim,
Yo‘limga ko‘zlari nigoron singlim.
Sen o‘zga uyga bosh olib ketding, men
Osmonga iz solgan uchoqday singdim.

Qay kuni aytildi qayralgan yor-yor,
Bag‘rimdan uzilib ketdi nozik tor.
Sen ketding... Bir chetga qamalib olib,
Yigit boshim bilan yig‘ladim zor-zor.

Go‘yoki sen emas – ketgan men edim,
Bahorning boshiga yetgan men edim.
“Alvido, bolalik beg‘uborligi,
Alvido, o‘smirlik... Alvido...” – dedim.

Taqdir bu...
Unga hech bormikan chora?!
Elakday elaydi bizni – ovvora...
Bir uyda tug‘ilib o‘sgan edik, lek
Endi ko‘rishmaymiz oyda bir bora.

Endi sen o'zga bir uyning bekasi,
O'zga bir qismatning tutqun – egasi.
Men-chi, eh, ko'nglimni sindirib qo'ydim,
Uzoqdan bilinib turar chegasi.

O'ynardik:
Men – “kasal”,
Sen-chi – “hamshira”,
Nina “sanchar eding” og'ritmay sira.
Bugun zirqiraydi yuragim, ammo
Davo yo'q...
Turibman, singlim, xavfsirab.

O'zimning holimga o'zim hayronman,
Kulib turibman-u – dili vayronman.
Ustuniga ilon o'rmalab chiqqach,
Qaldirg'ochlar tashlab ketgan ayvonman.

Akaman –
Holingni so'rmasman lekin,
Malomat qilmaysan,
Yashaysan bekin.
Ba'zida ko'rinib qolsa basharam,
Ekran oynasini silaysan sekin...

Ey mening yo'limga qaragan singlim,
Sochin farishtalar taragan singlim.

Sen o'zga uyga bosh olib ketding, men
Osmonga iz solgan uchoqday singdim.

Endi ota uyda bo'lib qolsak jam,
Bir kun bolalarday qilamiz bayram.
Har kim o'z yo'liga ketadi yana,
Onamiz ko'zida miltiraydi nam...

Mayliga, hayot shu,
Yashamak shu-da,
Nolimoq, vovaylo qilmoq behuda.
Qayerda bo'lsak ham, omon bo'laylik,
Panohiga olsin
Mehribon Xudo.

Ey singlim,
Vido ayt armonlaringga,
Ko'ksingdagi yara –
Alvonlaringga.
Qaldirg'ochlar mangu sirdoshing bo'lsin –
Ilon yo'l topmasin ayvonlaringga!..

2

Omonmisan, munis Nazokat,
Yaxshimisan, mushfiq Nigora?

Xijolatman oldingda behad,
Yo'qlamadim yilda bir bora.

Taklifnoma sochaverar kuz,
Qish yo'linga to'shar poyandoz.
Yo'l ko'rsatar ko'klamgi yulduz,
Terga botib o'tlanadi yoz.

Biroq mening parvoyim falak,
O'z-o'zimdanda ortmasman sira.
Hammol kabi chopaman halak,
Qiyinasa-da ba'zan xotira —

Yuraginga quloq solmasman,
Hislarimga bermasman imkon.
“Tirikchilik...” — deya tolmasman
Vijdonim sal qo'zg'algan zamon.

Yuragimni yuvadi ko'zyosh,
Hammasini yutyapman ichga.
Sinovlarga berolmasdan dosh,
Qul bo'ldimmi yolg'on sevinchga?

Do'st-u yorga sochib vaqtimni,
Davralarda so'z aytaman xush.
U yoqda-chi, tilab baxtimni,
Har kun meni ko'rasan sen tush.

Ro‘molchalar olaman gulgun
Va tuhfaralar bilan bir dunyo
Seni yo‘qlab boraman har tun,
Tong otadi... Afsus, bu ro‘yo...

Ro‘yo kabi o‘tmakda hayot,
Bilmam, o‘zi, qolarmi izim?
O‘g‘limga men yurgan yo‘llar yot,
Chang ko‘chada o‘ynamas qizim.

Ammo senga juda o‘xshar u,
Qiliqlari xuddi seniki.
Hech kimsaga bergisi kelmas –
Yaxshi ko‘rsa kimni, neniki.

Goho senga ichiksam yomon,
Erkalayman sochlarin iskab.
“Onam...” – deyman kulib u tomon,
“Singlim...” – deyman bir najot istab.

Bir lahzada tarqalar anduh,
Yig‘iladi yana dilda kuch.
Bo‘y cho‘zadi asta so‘lg‘in ruh,
Uyg‘onadi orzular g‘uj-g‘uj.

Tomirimda zamon shiddati,
Armonlarim ko‘pirar toshib.

Kun keladi – tugar muddatim,
Bo‘ynimda zil malomat toshi.

Singayapman sekin Toshkentga,
Oy – ko‘ksimning bitta tiligi.
Ayt-chi, singlim, o‘xsharmi menga
O‘g‘lingning ham biron qilig‘i?!

2006 – 2008

CHECHAK

Qayiradi bargin gulxayri,
Yuz ochadi kulib nastarin.
Sochlarimni silagin, mayli,
Titib ko‘rgin qalbim astarin –

So‘z topilmas ismingdan o‘zga,
Dunyodagi eng toza chechak.
Sen borsanki – chechanman so‘zga,
Sen borsanki – oydindir kecham.

Mayli, gullar barq ursin zimdan,
Atirga g‘arq bo‘lsin tevarak.
Hidlamasman. Sening isingdan
O‘zga hidlar menga ne kerak?!

Titramasin barg kabi labing,
Yuragingga cho'kmasin g'ubor.
Toki sevgi ekan matlabing,
Senga sodiq qolaman, dildor.

Faqat seni sog'inaman men,
Faqat senga ilhaqman mudom.
Faqat sen deb og'rinaman men,
Yuragim – bir sen uchun guldori!

Talpinadi garchi ming chechak,
Garchi pinhon yig'lab-siqtaydi.
Nima qilay, iloj yo'q hech ham,
Yuragimga ular sig'maydi.

Qilolmasman muhabbat tuhfa,
Ko'zyoshlari bo'lsa-da ummon.
Nigohingdan arisin shubha,
Tuman kabi to'zg'isin gumon.

Ko'p titmagin qalbim astarin,
Ma'yus bo'lma – o'yna, sevin, kul.
Senga havas qilar nastarin,
Senga havas qilar atirgul!

2008

UYQU

Uxlayapsan. Shirin. Osuda.
Kiprigingda masrur halovat.
Tamshanasan. Avaylar juda –
G'ijirlamas esli karovat.

Uxlayapsan. Oydin. Sokin. Tinch.
Chiroylisan – barcha tasdiqlar.
Ich-ichiga sig'masdan sevinch,
Semiradi ko'rpa-yostiqlar.

Uxlayapsan. Ma'sum. Betashvish.
Ish tashlagan horg'in shaharda
O'z-o'ziga topib olgan ish –
Oromingni qo'riqlar parda.

Jilmayasan. Balki, shu mahal
Tushlaringda chechak terasan.
Bermasin deb hech kimsa xalal
Qalqon bo'lar eshik-deraza.

Uxlayapsan. Uflay deya zar
Oy o'g'rincha qaraydi. Biroq
Tegmasin deb husningga nazar
Ko'zlarini yumadi chiroq.

Hamma senga mehribon. Hamma
Urinadi – yeydi g‘amingni:
Ki, hech narsa qilmasin hamla
Ki, xotirjam olgin damingni.

Uxlayvergin. Teran. Berilib
Hamma mas’ul... Faqat men bekor –
Ne qilarim bilmay, termilib
O‘tiribman yoningda bedor...

2008

BINAFSHANAFASLIM

Qishki quyosh kabi kelishing tansiq,
Binafshanafaslim, yalpiznafaslim.
Kulasan bahorni qilganday tasdiq,
Meni sog‘intirgan ma’suma faslim.

Holbuki, tashqari guvullar yomon,
Deraza ortida tinmay yog‘ar qor.
Xonamga sen kirib kelganing hamon
Qahraton qahri ham yitar mutlaqo.

Har so‘zing ko‘klamning sehridan darak,
Har imong qaldirg‘och kabi yoqimli.

Go'yoki sen bois bu qari falak
Teskari buradi havo oqimin.

Jimman men. Tomosha qilaman sassiz:
So'zlaysan. Kulasan. Barq urasan, barq.
Dunyoda bormikan men kabi xasis?
Husningdan bir o'zim olsam deyman zavq.

Ming afsus, yalpizday tashrifing qisqa,
Dimiqqan xonam ham senga kelar tor.
Dunyolar ko'z tikar sen kabi qizga,
Ketasan qoldirib anvoyi ifor.

Hidlayman... Og'riydi nechundir ko'ksim,
So'ng yana sho'ng'iyman g'avvosday ishga.
Yuragim yo'l olar ko'chaga o'ksib,
Dardini aytgali qahraton qishga...

2009

TALABALIK QISSASI

Men ham bir payt siz kabi
O'tyurak tolib edim.

Chorlab hayot maktabi,
So'ng bundan tonib edim.

Bugun dilda nadomat,
Bugun tilimda tavba:

Qani, kulsa-yu omad
Bo'lsam birpas talaba.

Afsus, hayot dilimni
Shamolday yulib ketdi.

Sochib barcha ilmni,
Ustimdan kulib ketdi.

Cho'kayapman kun sayin,
Dilda achchiq quyqalar.

Men ham bir payt sizdayin
Oshiq edim, ukalar.

Teng kelmasdi damimga
Majnun, Farhodning ohi.

Goho singib g'amimga,
Ko'kka uchardim gohi.

Eh, u damlar zamin na,
Samoni buzsam derdim.

Yulduzlarni yig'ib va
Hilolni uzsam derdim.

Ko'z tikardi yo'linga

Go'zal, g'amgin nigohlar.
To'kilib o'ng-so'limga
Pinhon kuyish, oh-vohlar.
Meni o'ylab tunlari
Ne qizlar bedor edi.
Men sevmadim ularni,
Ular-chi, bemor edi...

Bir kun boshlandi nogoh
Dilda taka-pukalar.
Qayg'udan bo'ldim ogoh –
Sevib qoldim, ukalar!
Ichim yonardi gur-gur
Unga qaragan sari.
U mahliqo edi, hur,
Odam qizimas – pari.
Holim siniqib tun-kun,
Ich-etimni yer edim.
“Seni sevaman, tushun...” –
Tushlarimda der edim.
Dardim – uni qo'msamoq,
Bezdim o'zga va'zlardan.
Sevgidan olib saboq,
Oyoq uzdim darslardan.
Men ham sizday u mahal
Oshiq edim, ukalar.

Yigirmadan endi sal
Oshib edim, ukalar.
Xullas, mendan kuldi u,
Dedi: "Meni sevmassan –
Sening tenging odam-ku,
Sen jin yoki devmassan..."
Qolaverdim mung'ayib,
Qolaverdim bemajol.
U bo'ldi ko'zdan g'oyib,
Boshqa ko'rmog'im mahol...

Yillar o'tdi. Ko'zimga
Kullarin sepib o'tdi.
Yukin ortib ustimga,
Nuqib, goh tepib o'tdi.
Mulla mingan eshakday
Tushib oldim bir izga.
Endi yoshlik ertakday,
Endi o'ylarim o'zga.
Osmondagi oy emas,
Yerdagi toshga boqqum.
Jo'shqin, asov soy emas,
Sokin daryoday oqqum.
Qaramayman oy, yillab
Na ko'ngilga, na she'rga.
Meni sevganlar yig'lab,

Tegib ketdilar erga.
Nima qilay?.. Bu hayot
Saboq berdi har bobdan.
Endi menga g'o'rlik yot,
Endi pishiq arbobman.
O'ylayman manglay uyib,
Bo'ynimda gullik arqon.
Ulkan zafarni tuyib,
Qadam tashlayman har on.
Toliqib kelsam uyga,
Xotin poyim uqalar.
(Fido bo'ladi suygan),
Buyam bir baxt, ukalar.
Yashayapman taqdir deb,
Qilib har dam murosa.
Yuz burmayman taxir deb,
Shu men kelgan xulosa:
Parilarning hislari
Erkka moyil bo'ladi.
Meni sevgan qizlarning
O'g'li shoir bo'ladi!

2009

QAMISH

Yerga sochdi falak dehqoni
Urug'imni – suvda urdim nish.
O'sdim Quyosh mehriga qonib,
Alqadi u: "Yuksal, ey qamish!"

Bo'y cho'zardim muhitni bilmay,
Bilmay hasrat nima, ne alam.
Chayqalardim: "Bo'lgum bir kun nay,
Hech bo'lmasa, nafis kilqalam.

Yog'duga esh bo'lgay a'molim,
Oyoqosti qilmam qadrimni..."
...Qah-qah urdi qismat shamoli,
Egar ekan nozik qaddimni.

Sezdim: fitna to'la to'qayda,
Sezdim: boshqa o'smog'im mahol.
Qalam va nay bo'lmoqlik qayda –
Poxol bo'ldim, vodarig', poxol...

Endi har kun tanamni beo'y
Bosar ekan ayollar, erlar –
Ingraydi men chalolmagan kuy,
Ezilar men yozmagan she'rlar...

2009

MUZQAYMOQ

Muzqaymoq yegisi keldi ayolning
(Og'ir dard ichida yotardi behol),
Eriga qimtinib aytdi xayolin...
"Ishdan keyin... Xo'pmi?!
Bo'pti. Yaxshi qol!"

Eri shoshar edi. Kutardi sahna,
Eri shoshar edi – taniqli aktyor.
San'at osmonida yulduzday chaq nab,
Olqishlar zabtidan edi baxtiyor.

Ayol-chi? Negadir borardi kuyib,
Ko'z yumsa – tushida muzqaymoq ko'rdi.
Yoqimli yax novvot ta'mini tuyib,
O'nta barmog'ini birma-bir so'rdi.

Erimi, mardlikka o'qib qasida,
Gulduros ovoz-la solarkan suron –
Yengilmas jahongir qiyofasida
Pastkash kimsalarga keltirar qiron.

Nihoyat, tushadi oxirgi parda,
Hamma qahramonga ofarin aytar.
U esa grimin erinib arta
Horg'in bahodirday uyiga qaytar.

Ammo tek qotadi ostonada u,
Nimadir ko'ksida yaxlaydi yomon.
Axir, tongda va'da bergan edi-ku,
Muzqaymoq....
Ortiga qaytar shu zamon...

Jonsarak izg'iydi u shahar bo'ylab,
Yarim tun: do'kon-u rastachalar berk.
Uyda behol yotgan ayolin o'ylab
Yolborar: "E xudo, o'zing madad ber..."

Noiloj bo'shashib qaytar iziga,
O'zini nomard-u kaltabin sezar...
...Mo'ltirab boqarkan erin yuziga,
Xotini ko'zidan tomchi yosh sizar.

Lablari quruqshab pichirlar zaif:
"Alvido! Men o'ynab bo'ldim rolimni..."
Aktyor tiz cho'kadi. Yig'lar bukchayib...
(Sahnada ko'rgandi faqat o'limni...)

So'ng yolg'iz yashadi yuz yilmi, ming yil,
Mahbusday... Keng uyi misoli qamoq.
Har kecha to'lg'onib tush ko'rdi bir xil:
Do'zaxda izlardi tinmay muzqaymoq...

2010

TA'TIL

...Va, nihoyat, tegdi-yu ta'til
Qanot yozib qishloqqa uchdim.
Har lahzasi asrga tatir...
Duch kelgan har daraxtni quchdim.

Yo'l boshida uchta qari Tol:
"Keldingmi, – deb boshim siladi, –
Bizni ancha kutdirding, alhol,
Sabrimizni yoki sinading?.."

Oftob yonar...
Eriydi diydam,
O'sha chang yo'l va paxsa devor.
Bir burchakda mung'aygan Jiyda
"Uf" tortar-u... purkaydi ifor.

Yo'l bosaman ariq yoqalab,
Hovuz bo'ylab kiraman boqqa.
Lash-lushimni sekin orqalab,
Salom deyman Boboyong'oqqa.

Chapak chalay deydi-yu, biroq
Qotar kallak qilingan Tutlar.
Tanasida – alamli titroq,
Mendan taskin va dalda kutar.



Bosh egaman...

Axir, aybim mo'ʻl,

Xijolatdan qizarar yuzim.

Shivirlaydi: “Oshna, bardam boʻl!” –

Ishkomlarga tirmashgan uzum.

Bosh suqaman tanish hovliga,

Ostonadan hatlaganim choq

Silkinadi – qattiq hovliqar

Qoʻshni uydan moʻralagan Nok.

“Uzoq ketding juda ham, eh-he...

Necha marta pishdi gʻoʻramiz... –

Gina qilar Oʻrik va Behi, –

Ketmaysanmi – endi koʻramiz...”

Xullas, bari bir-bir daraklar,

Choʻkkim kelar hammasiga tiz.

Qoʻllab tursa shunday daraxtlar,

Yana bunda otaman ildiz...

2010

ORTIQ BOBO

Yon qo'shnimiz – sodda, do'lvor Ortiq bobo,
Ismi – bir kam dunyosidan tortiq, bobo.
Shuncha yashab biri ikki bo'lmadi hech,
Ko'ngli kemtik, hamon o'sha – yorti bobo.

Kulib turar – ichida hech olasi yo'q,
Kim aytadi lekin uning nolasi yo'q?!
Chang ko'chaga ko'mar barcha alamini –
Yetmish beshga kirdi... ammo bolasi yo'q.

Choponining etagini tortib qo'yar,
Namli ko'zin yengi bilan artib qo'yar.
Tushunmadi bu dunyoning savdosiga –
Odamzodga qanday talab, tartib qo'yar?

Axir, qanday yigit edi – dasti baland!
Sira pisand emas edi past-u baland.
Qirq yil beshik sotib oldi tushlarida,
Endi esa qismatiga qasdi baland.

Kampiri ham unday elar g'ussasini,
Qayg'u battar ezgan mushtday jussasini.
Ko'ngli anor tusagan yosh kelinchaklar
Pichirlashar uning g'amgin qissasini.

Ortiq bobo! Har bolaga qand beradi,
Ayrımlari o'sib hali pand beradi.
Dilbandiday ko'rar barcha jujuqlarni,
Bag'ri to'lib goho, mamnun qad keradi.

Biroq so'nggi yillar qoldi sal o'zgarib,
Orzulari singari u toldi qarib.
Orqasida bolalarin yig'latib zor
Teng-to'shlari ketdi – yolg'iz choldir g'arib.

Endi botar og'ir-og'ir o'ylarga u,
Termiladi qiy-chuv to'la uylarga u.
Hadeganda aralashmas el ichiga,
Boshin egib kirib-chiqar to'ylarga u.

Ortiqchaman endi elga, netay, dermi
Yo yukimni olib butkul ketay dermi,
Bu dunyoda yetmadim bir tilaginga –
U yoqlarda niyatinga yetay dermi?

Ey Xudojon, yetsin senga nolalari,
Yostiqni ho'l qilgan issiq jolalari.
Jannatingda kutib olsin chug'urlashib
Bu dunyoda tug'ilmagan bolalari...

2010

BIRINCHI QOR

Keng samoda kimdir she'r bitib,
Tuyg'ulari ko'pirdi-toshdi.
So'ng... negadir g'ijimlab, yirtib,
Mayda-mayda zaminga sochdi.

Butun olam she'rga to'lgandek,
Qiyqim-qiyqim qopladi yerni.
Tashqariga chiqsam deyman, lek
Bosolmayman, axir, men she'rni...

2010

BOYCHECHAK

Qor ostida mitti boychechak
Tush ko'radi quyosh yuzini.
Tarnovlarda sumalak chak-chak
Buzsam deydi gul uyqusini.

Nozlanadi... Va ko'z ochar ul,
Yosuman qish qochar inqillab.
Shunday toza, nafis, ma'sum gul
Yer yuzida boshlar inqilob!..

2011

QALQON

Sizning ko'ksingizga otilgan har tosh
Mening yuragimni tiladi avval.
Sizning ko'zingizda g'iltillagan yosh
Mening jigarimda silqiydi yal-yal.

Bo'g'zingizda nola,
Goho qo'shiqman,
Siz bilan yorug'dir tunda ham yo'lim.
Xitoy devoriday yuksak to'siqman –
Meni hatlab Sizga yo'lolmas O'lim...

2013

SHUMXABAR

Telefon tun sukutin buzar,
Simillaydi bexosdan ko'ksim.
Juda yaqin rishtani uzar
Olislarni bog'lab turgan sim.

Tosh qotaman qaltiroq sasdan,
Tomirimda to'ng'ib qolar shavq.
O'z o'rnini topa olmasdan,
O'ksib-o'ksib yig'laydi go'shak.

2012

RAFIQA

Juda qiziq holat,
Xo‘b ajib holat,
Yechim topish qiyin o‘ylab oy, yillar.
Xotinga she‘r yozsa bo‘lar xijolat
Yuzlab sanamga she‘r bitgan shoirlar.

She‘riyat sahnida gulduros solib,
Yulduzlarda yurgan chog‘i xayoli
Ro‘zg‘or to‘rvasini qo‘liga olib
Bozorga chopadi mushfiq ayoli.

Olifta davralar,
Tannoz oyimlar
O‘ynoqi baytlarga chalganda chapak,
Neki qora yumush – bir-bir qoyillar,
Biladi, osmondan yog‘maydi chalpapak.

Joni qirqta derlar,
Irodasi cho‘ng,
Bolalar yukini tortadi yakka:
Kenjasini olib maktabidan, so‘ng
Kattasin eltadi qay to‘garakka.

Eri – mashhur shoir,
Mehmoni ham mo‘l,

Mehrini kosalab tinmay tashiydi.
Ne qilsin, band bo'lsa, axir, ikki qo'l?
Kapgir uchi bilan boshin qashiydi.

Quyosh yulduzlarni tush ko'rgan mahal,
Quyuv tortganda ham tun atalasi,
Bemalol o'ringa yotmog'i mahol –
Oqshom bu – qizigan ijod pallasi.

Kiprigi uyquga ilashgan hamon
Kimdir biqiniga sekin nuqiydi.
Zo'rg'a ko'z ochadi... Shoiri zamon
Yangi yozgan she'rin jo'shib o'qiydi

Ne haqda deysizmi?
Tag'in o'sha gap:
Tashbehlar muhabbat, sevgiga doir.
Oyga shoirona ko'z bilan qarab,
Birinchii sevgisini alqaydi shoir.

“Zo'r” deydi...
Tush bilan chalkashar o'ngi,
Tushida u ilhom parisi, hurmish.
Lek chala qoladi – ko'rilmas so'ngi,
Ertalab qaytadan biqirlar turmush.

Xolis xizmat qilar shoir-u erga,
She'riyat mulkiga qiladi xizmat,
Va lekin loyiqmas to'rt qator she'rga –
O'zga bag'ishlovlar to'qiydi qismat.

Xullas, shu...
Janobi shoir jo'ralar,
She'rimni yolg'on deb hech tonolmaysiz.
Ro'zg'or kitobidan agar so'rsalar,
Bilimingiz noqis – maqtanolmaysiz.

Soxta takalluflar yetar endi, bas!..
Quloq solmoq kerak ko'ngil sasiga.
Qo'ysangiz shoirning o'ziga emas,
Haykal qo'ying munis rafiqasiga!

2014



NAVOIY

1

Do'stlar, bir zot kelmoqda asrlarni oralab,
Ezgulikni ulug'lab, razolatni qoralab,
Kaftida quyosh tutib, zulmat ko'ksin poralab,
Har ko'ngildan ko'ngilga safar qilar Navoiy,
Dillarni asir aylab, zafar qilar Navoiy.

Ko'z ochgaydir toshlar ham, tegsa qutlug' hassasi,
Qalblar buloqqa do'nar – asotirli "Xamsa"si,
Ikki dunyoga bezak ham suvrati, ham sasi:
Oshiqlar barhayotdir – zavol bilmas Navoiy,
Zamonlar shiddatini ko'zga ilmas Navoiy.

Qaqnus, Simurg' tilida yaxshilarning hayrati,
Nafis majlislar tuzmish Layli, Shirin hay'ati,
Pisand emas Iskandar, Dorolarning haybati,
Yetti sayyorani ham qo'lga oldi Navoiy,
Yulduz so'zlarni oydin yo'lga soldi Navoiy.

Oltin misralar tiza yuksaltdi ishq zinasin,
El-ulusga ochdi u maxfiy Haq xazinasin,
Besh asrdan oshdikim, tuganmas ganjinasin
Ayamasdan ulashar saxiy vazir Navoiy,
Har ko'ngilda tikladi boqiy qasr Navoiy.

Oshiqlarning shohi u, shoirlar avliyosi,
Tomirlarni yoritgay har hikmatin ziyosi,
Adabiyot mulkida yo'qdir tengi, qiyosi,
Kim qalamga suyansa, shaksiz, piri Navoiy,
Yaratganning oshkor va pinhon siri Navoiy!

Xuruj qilsa hasrat, oh – ko'nglingga quloq tutgay,
Goh qo'shilib yig'lar u, goho kulib ovutgay,
Ruhingni ko'targaydir, garchi o'zi qon yutgay,
Har bayti bir tumordir – balogardon Navoiy,
Oshiqlarning dardiga davo har dam Navoiy.

Ey birodar, qarodan yuz o'girgil – oqqa kel,
Bul g'animat chog'larda dilni qutqarmoqqa kel,
O'zlikni anglay desang, bu kun Milliy boqqa kel –
Har niholga nigohbon, panoh erur Navoiy,
Millat uchun abadiy mayoq erur Navoiy!

2

Sirlarini ochar asta Navoiy,
Goh hazin, goh masrur sasda Navoiy.

Ishq do'konin bunyod qilmish muhtasham,
Har g'azali – gulgun rasta, Navoiy.

Oshiqadi unga bemor oshiqlar,
Ulashadi shifo xasta Navoiy.



Ulus dardin shimar dilga damo-dam,
Sevinch sochar dasta-dasta Navoiy.

Chechaklarga chang solganda g'addorlar
Hayot shavqin ko'rar xasda Navoiy.

Muxoliflar bigiz sanchsa giz-gizlab,
Qalam yo'nmas alam-qasdda Navoiy.

Ko'k toqiga ot qo'ysa-da xayoli,
Pok nazari mudom pastda Navoiy.

Shaydo dillar davrasida soqiy ul,
Ishq mayidan mangu mast-da Navoiy.

Do'stlar, shoir bo'lolmasak, ayb etmang:
Bir millatga o'zi bas-da Navoiy!

2014

ZIDLOV

Ko'ylagi oq,
Tuflisi ham oq,
Oppoq hatto kamari,
Shimi.
Qamashadi har qanday nigoh,
Ko'rsatarkan durday tishini.

Oq ot kabi boradi yo'rtib,
Ohaklangan ravon yo'lagi...
Faqat bilmas:
Tobora bo'rtib
Ko'rinadi qora yuragi...

2015

HAYOT QONUNI

Zanglagan pichoq mudom dasturxondan tashqari,
Davralarga sig'maydi e'tibordan qolgan kas.
Adashib kirib qolsa, ermak qilar yosh-qari,
Salom bersa, nomiga bosh irg'ovchi topilmas.

Ey odam, qo'y, birovning motamidan bo'lma shod,
Gal kelganda hayotning qonunini anglaysan.
Garchi o'zingni harchand qilsang hamki ehtiyot,
Yo charxda yemrilasan, yoki sen ham zanglaysan...

2015



GUL

Sening qarashingga zor emas bu gul,
Sening maqtoving deb sochmaydi ifor.
Ochilsa, gullasa – saodati shul,
Dunyoga bezakdir to tushguncha qor.

Qovjirar, to‘zg‘iydi bir kun ertalab,
Na yerga, na ko‘kka qiladi ta’na.
Sening kuyishingni etmas u talab,
Sening ko‘zyoshingni qilmaydi ta’ma...

2016

TASHBEHLAR

Tong otdi. Qarasam, tashqarida qor,
Hayratga ko‘mildim ko‘rganday ilk bor.

“Nima bu?” – miyamda savol aylandi,
Ming turfa faraz-u xayol aylandi.

Ehtimol, Samoning oqarib sochi,
Qirtishlab, yubormish zaminga sochib.

Yo yer yarasiga sepilgan tuz bu?
Yo ko‘kka tutilgan bepoyon ko‘zgu?

Avliyo ko'nglidan ko'chgan nurmikan?
Jannatdan to'kilgan sadaf, durmikan?

Yo noni tugagan bechora Falak
Un tortib, quyoshni qildimi elak?

Yo sutmi to'kilgan oy chelagidan,
Sog'dimi sal ko'proq u keragidan?

Kallamda aylandi ming bitta tashbeh,
Ishqilib, qor emas, qor emas bu...

Eh...

Qarasam, hammasi ro'yo, bekorday,
Bir-bir erib ketdi shu yupqa qorday...

2016

RUH

Men kimman? Bor-yo'g'i bitta kotibman,
Ruhim ne so'z aytsa, yozayotibman.

Va lekin bilmasman o'sha Ruh kimdir?
So'rasam, qalbim ham, ongim ham jimdir.

Qo'qqisdan kelar u hayajon purkab,
Shoshirar: yozib ol, zo'r gap bor, zo'r gap!

Bezovta, qo'llarim titrab bitaman,
Munosib so'z izlab ko'nglim titaman.

Gohida topilmas o'sha mos tashbeh,
Boshimga uraman – beraman tanbeh.

Bo'la qol, Ruhimning vaqti ziq deyman,
Yozganimga tortar u chiziq deyman.

Goh ko'zyosh, gohida terga g'arq qilar,
Ishim bitar-bitmas meni tark qilar.

Ruh ketar... Qolgani – aql-u qalb ishi,
Unga mos mukammal bichim tashvishi.

Goh oson topilar andoza, qolip,
Goho o'kinaman besamar qolib.

Shu bois she'rimga berarkan baho,
Biling, kim landovur, kim esa daho.

She'rim yaxshi bo'lsa, Ruhga sharaf-shon,
Yomon bo'lsa, toshni oting men tomon!..

2016

KO'RDIM

Ko'pkarida olmasin deb o'rnimni,
Necha toyga tepki otgan ot ko'rdim.
Goho tushim chappa bosib o'ngimni,
Jigarimni yuragimga yot ko'rdim.

Hasrat suvin olib sochsa eski charx,
O'z holimga topolmadim izoh, sharh,
Sukut saqlab turganlarni g'amga g'arq,
Taskin bergan biyronlarni shod ko'rdim.

Hayot – shatranj: ko'rdim gizli chohlarni,
Ayamas na qoralar, na oqlarni,
Piyodani chetga surgan shohlarni
Sipohlari bilan birga mot ko'rdim.

O'z kulfatin anglamas hech go'l banda,
Qayda yaltir-yultur bo'lsa, ul anda.
Lunji shishib g'ofil qah-qah kulganda
Sarg'ish maysa ko'zlarida dod ko'rdim.

Ko'rdim gulni avragan shum kuzlarni,
So'zi tuzsiz, sho'rpushona yuzlarni,
Ko'zimni kir qilgan yag'ir ko'zlarni
Ko'rmay dedim, ko'rmay dedim – bot ko'rdim.

Quyosh – har tong ko'kka Xudo otgan o'q,
Jahannamdan ko'rgazmaga bitta cho'g',
U dunyoda Iblisga duch qilma, yo'q,
Shu dunyoda, karami keng Zot, ko'rdim!..

2017

DADAM

Yo'lamaydi yuragimga dunyo changi,
Duolari atrofimda qo'rg'on dadam.
Oyog'imga kirmoq bo'lgan zirapchani
Uch kun burun tushlarida ko'rgan dadam.

Har lahzalik zilzilasi gizli bu dun,
Bexos silkib, qalbni qilgay ostin-ustin.
Bilmadim, hech bo'loldimmi tirgak-ustun?
Menga mudom suyanch bo'lib turgan dadam

Gohi choyga qotdi hayot talx ta'mini,
Qo'shib ichdi ko'zdan tomgan alamini,
Bu dunyoning to'lmaydigan bir kamini
Mehri bilan bilintirmay yurgan dadam.

Elga xizmat qilib xonday qozondi shon,
Tinch yotolmas, kelmay qolsa bir kun mehmon,
Tegrasida odam arib qolgani on
Xizr bilan yolg'iz suhbat qurgan dadam.

Mening izlab topganim she'r-qo'shiq bo'ldi,
Dilga soldim – yana tubsiz bo'shliq bo'ldi,
Bo'shliq o'sib tog'day baland to'siq bo'ldi,
Kifti bilan hasrat tog'in surgan dadam.

Bor Xudoyo, gunohim ko'p, o'zing kechir,
Men tufayli orzularin qilma chil-chil,
Shu ulug' zot haqqi meni hidoyat qil,
Qo'lin ochib, qiblaga yuz burgan dadam!

2020

AYA

Hovlimizni gulgog' qilib, gul ekasiz,
Dildan hasrat pechaklarin yuling, aya.
His qilaman, ba'zan pinhon g'am chekasiz,
Sizga kulgi yarashadi, kuling, aya.

Ko'ylak kabi to'zdimi yo xush chog'ingiz,
Shamol bilan to'ldimi keng quchog'ingiz?
Cho'g'i o'chib, sovimasin o'chog'ingiz,
O'zim olay ko'nglingizning kulin, aya.

Boshimizda yo'l boshladi qarchig'ay, sor,
Bo'yladig-u keng dalamiz tuyuldi tor,

Toychoqlarin izlab bir ot kishnadi zor,
Bizlar – tarqab ketgan bebosh qulun, aya.

Olti bola – olti taqdir, olti yo‘lak,
Har birining bugun o‘yi, uyi bo‘lak,
Nabiralar irg‘ishlaydi, qilgay halak,
Qoshingizda bir juft o‘g‘il, kelin, aya.

Goho oylab cho‘zilar uch yuz chaqirim,
O‘chirmoqchi bo‘lib sog‘inch cho‘g‘-chaqinin,
Agar o‘ng‘ay emas o‘ng – tushda chaqiring
Yoki... bizni baxtli qiling – keling, aya!

Borimiz ne, yo‘g‘imiz ne – siz egasiz,
Bag‘rimizni gulbog‘ qilib, gul ekasiz,
Oltinsiz – eng qadri baland, boy bekasiz,
Sizga kulgi yarashadi, kuling, aya!

2017

QAYTISH

Qaytaman... Barmog'im tegishi bilan
Darvoza uyg'onib, cho'chib yig'laydi.
Yo'laklar – oyog'im taftini bilgan
Har bosgan izimga ko'chib yig'laydi.

Soyam tik turar-u qo'limdan ushlar,
Birma-bir o'nglanar chap ketgan tushlar,
Kaftimdan don yegan qadrdon qushlar
Charx urib boshimda uchib yig'laydi.

Tirilar izma-iz o'tgan kunlarim –
Xotirga tosh kabi botgan gunglarim...
Ko'nglimdan rang olgan ma'sum gullarim
Ko'zimning yoshini ichib yig'laydi.

Ismimni bag'riga o'ygan daraxtlar,
So'ng meni yo'qotib qo'ygan karaxtlar
Boshimdan sochadi zarrin varaqlar –
Tilla barglaridan kechib yig'laydi.

Ostona... Titranar siniq tovushim:
«Men keldim!» – bo'shliqqa singar qovushib.
Onamning poy-patak bo'lgan kovushi
Olifta tuflimni quchib yig'laydi...

2017

CHIROQ

Gijinglab turibsan – garchi yo‘l yiroq,
Shaxdamsan – manziling bo‘lsa-da olis.
Xudoyim qalbingda yoqmishtir chiroq,
Yo‘lingni yoritgay ilohiy fonus.

U borki, ko‘zlaring bexato ko‘rar,
Tunda ham topgaysan to‘g‘ri, chin rohni.
Vodarig‘, kimlardir ko‘tarib yurar
Ko‘ksida qachondir kuygan chiroqni...

2017

BIR KASALLIK TARIXI

Hakim huzuriga keldi bir odam:
«Yordam bering, taqsir, ahvolim og‘ir.
Bir oyki tatimas na uyqu, na dam,
Zirqirab, achishib kiftlarim og‘rir...”

«Ko‘ylakni yeching-chi...” – buyurdi hakim,
Yigitning yelkasini siladi asta.
Bo‘g‘riqqan joylarga tegar ekan jim,
Og‘riqqa chidolmay dod soldi xasta.

«Bu qanday ko‘rgulik,
Bu qanday azob?

Qaysi aybim uchun yopishdi bu dard?
Odil Parvardigor, bu nechuk jazo –
Sendan hayo qilib, yashovdim begard...”

Ilk bora bo‘lgandi u bunday behol,
Hattoki tumov ham edi unga yot.
«Menga nima bo‘lgan?»
Hakim boqib lol...
Dedi: “Kifitingizdan o‘smoqda qanot!”

«Qanot!? – hayrat ichra angraydi bemor. –
Nahotki!? Rostmi shu!?”

Xo‘rsindi tabib:

«Har qanday kasalning o‘z davosi bor,
Qo‘rqmang, tuzataman yo‘lini topib...”

Birdan yengil tortdi yigit,
Jilmaydi.

Ko‘ylagin kiyvoldi xushchaqchaq, o‘ktam:
«Qo‘ying, qanot bo‘lsa, zarar qilmaydi,
Uchish orzum edi, to‘g‘risi, ko‘pdan”.

Hakim hayron bo‘ldi,
Qoldi hang-u mang –
To‘zg‘igan xayolin qiynalib jamlar:
«Parvozni unuting!

Dunyo tor-u tang,
Uchishga qo'ygaymi sizni odamlar?!"

U ketdi.

Boqmadi tabib ra'yiga,
U ketdi – boshqa hech ko'rmadi hakim
(Neni bitgan bo'lsa Haq manglayiga,
Shu yozuq izmida yo'rg'alar har kim).

Qanotli odamni ko'rmadik biz ham,
Ehtimol, xaloyiq bandi etgandir.
Ehtimol, qanoti kuchga kirgan dam
O'zga sayyoraga uchib ketgandir...

2017

FALSAFA

Har dilga kerak bir suyanchiq, ustun,
Faqat osmon turar shunday, tirkaksiz.
Izingdan bir bulut yursa uzzukun,
Soya tushar senga tolsiz, teraksiz.

Sof nafas beradi sarin yel cho'lga,
Jilg'a yo'l ochadi boshi berk ko'lga,
Axir, chiqolmaysan keng, ravon yo'lga,
Uyingdan boshlangan tang-tor yo'laksiz.

Bir cho'g'dan yonadi hayot o'chog'i,
Shu cho'g'-la kul bo'lar tiriklik bog'i,
Qayta tug'ilamiz jon chiqqan chog'i,
Yo'qsa, ketar edik oppoq yo'rgaksiz.

Ey sarkash odamzod, falsafang har xil,
Safsata saralab, to'qiysan naql,
Jannat qopqasini topar-u aql,
Lekin kirib bo'lmas unga yuraksiz...

2017

BITIM

Bitim tuzsa nogoh ayoz hamda yoz,
Olov oshna bo'lar emish muz bilan.
Yerga tushib kurtak yozsa xazon boz,
Ko'klam egiz bo'lar emish kuz bilan.

Zulumotni alqab yonsa pilik, sham,
Bir qozonda qaynab yotsa shodlik, g'am,
Bilmay qolsa el nimadir maza, ta'm,
Shakar fitna qilar emish tuz bilan.

Egri qo'ysa tarozini avom xalq,
Nasiyaga moyil esa, ketsa naqd,
Ko'rgan emas, eshitganlar chiqsa haq,
Yuz talashar emish quloq ko'z bilan.

Chiroq tutsa qorong'ida kar ko'rga,
Yo'l boshlasa Boychiborga xar-yo'rg'a,
Do'ppi qolib, kovush chiqsa gar to'rga,
Oyoq ost-ust bo'lar emish yuz bilan.

Gir aylansa orqa, old-u o'ng, chaping,
To'zg'ib ketsa qum qatorday rost safing,
Tegmay qo'ysa na ziyon-u, na nafing,
Dushman ilik qoqar emish do'st bilan.

She'ring qo'shiq bo'lsa, ko'krak kerma, yo'q,
Onang aytgan alladan zo'r terma yo'q,
Chalasavod hofizga she'r berma, yo'q,
Ohang qaqshab yotar emish so'z bilan...

2017

QOZON SHE'RI

Rail Gataullinga

Kuz.

Hanuz Toshkentda o'ttiz daraja,
Yashil tush ko'rmoqda jamiki xazon.
Do'stlar taklif qildi.
Qanot yozdim va
Meni qarshi oldi sovigan Qozon.

Bu o'sha – orzular qaynagan shahar.
Bu o'sha – turklarning gurlagan shoni.
Tush ko'rib to'lg'ongan ne gajir shohlar,
Ne qattol tig'larning bo'lgan nishoni.

Garchi bu zaminda turibman ilk bor,
Ilk kez qarshi oldi meni bu o'lka.
Sezyapman: bu yerda tomirlarim bor –
Qonimday yoyilib oqmoqda Volga.

Olov yoqmay suvni qaynataylik deb
Qo'ngan ajdodlardan meros go'sha bu.
O'zbekxon tufayli e'tiqodi zeb,
Ruhi sayqal topgan ma'vo o'sha-ku!

Ufqlar qa'riga tikilgan onim
Moziy quchog'ida ko'raman o'zni.



Ehtimol, mening ham to'kilgan qonim
Qilich sermagan kun bunda Grozniy.

Kimlar talpinmadi, axir, Qozonga,
Suqlanib, tamshanib – kelib havasi.
Barchaga joy berdi... Qutlug' azonga
Qorishdi cherkovning qo'ng'iroq sasi.

Dunyo jaholatga asir tushgan chog'
Tizganmiz ma'rifat marjonin, illo.
Balki, Samarqandda olganmiz saboq
Birga Shihobuddin Marjoniy ila.

Manzil to'zon ichra g'oyib bo'lgan dam,
Qora tutun chirmab bosganda yuzim
Yorug' yulduz kabi bo'ldi-ku hamdam
Abdulla To'qayning chaqnagan ko'zi.

XX asr – beayov mergan...
Shukr, changalidan g'olib keldim men.
Musa Jalil pinhon omonat bergan
Moabit daftarin olib keldim men.

Xullas, begonamas menga hech Qozon,
O'chog'ida bitta o'chmas cho'g' bo'ldim.
Ilm alangasi gurillagan on
Iligi, mag'zi va ko'ngli to'q bo'ldim.

Balki, shuning uchun mehmon kabimas,
Mezbonday bemalol bosyapman qadam.
O'zbekcha taom-la siylar basma-bas,
Qozonni ko'rsatib Rail do'stim ham.

U bilar: dunyoda ko'p erur bosh kent,
Joylar ko'p xarita uzra qabariq,
Va lekin O'zbek yurt yuragi – Toshkent
Unga o'z vatani kabi tabarruk.

Qondoshim, e'zozlar uchun ming qulluq!
Jondosh og'a-ini – o'zbek va tatar.
Bir-birin bilgaydir aziz va ulug',
Bitta dasturxonni tuzab tuz totar.

Mayli, omon bo'lg'in...
Salqin kepti kuz,
Garchi har faslning yo'qdir qiyosi.
Qo'rqma,
Qozon ustin qoplab olsa muz,
Eritgay o'zbekning tanti quyoshi!

2019

YURAK TILI

Dunyo soqov edi, tuyqus soʻz soʻradi – sado boʻlding,
Jilva sochdi mavjlaringda oy-u yulduz – samo boʻlding,
Koinotning burjlariga yoyilgan kuy – sano boʻlding,
Sen tufayli vujudimga jo boʻldi-ku jonim, tilim.

Toshga ham til ato etgan sirli bitik – tilsim sensan,
Zarang moziy darvozasin ochqich kalit – “sim-sim” sensan,
Kamalakday lisonlar koʻp – yolgʻiz yurak tilim sensan,
Tilmoch boʻlding muhabbatga mehmon boʻlgan onim, tilim.

Sen suluvsan – Koshgʻariyni Majnun kabi koʻyga solgan,
Alisherbek vasf etay deb chiroyingni oʻyga tolgan,
Qodiriy ham Choʻlpon suyib, oshiq joni oʻtda qolgan,
Ishq ahlining sharoridan sharaf topgan shonim, tilim.

Koʻksimdagi chechagim sen – kim qoʻl choʻzdi yulmoq uchun,
Poymol etib, soʻng ustimdan qah-qah otib kulmoq uchun?
Xazinasan, qulf eshigi tilsiz, dilsiz gumroh uchun,
Siym-u zarim, dur-gavharim, tilla toʻla konim, tilim.

Yov yoʻlasa, qilich-qalqon soʻzing tutib, qasd boʻlaman,
Taʼzim qilsa Senga, men ham otdan tushib past boʻlaman,
Sasing tuysam safarlarda, safo ichra mast boʻlaman,
Soqiy mudom saxiy senga – saodatli jomim, tilim.



Dilim sarxush, tilim biyron – abad baxtga yorligimsan,
Xudoyimning mukofoti – mangu maqtov yorlig‘imsan,
Ko‘zim deymi, yuzim deymi – boshdan oyoq, borlig‘imsan,
Yetmish ikki tomirimda oqib turgan qonim, tilim.

Ey sen xazon bilmas bog‘im, o‘zbekiy sof guling bo‘lay,
Guling uzra qanot qoqqan beorom bulbuling bo‘lay,
Hech bo‘lmasa, iltifot qil, bir qo‘riqchi quling bo‘lay,
Davlatli sultonim, tilim – oliymaqom xonim, tilim.

Sen bo‘lmasang, ko‘kka eltar nurli narvon, yo‘lim qayda?!
Sen sarbonsan, dilim – ziyo ortgan karvon, qo‘nim qayda?!
Tirikman, sen bois boqiy menga davron – o‘lim qayda?!
Sen borsanki, jaranglagay ko‘k toqida nomim, tilim!

2019

SO‘Z

Doston

*Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin...*

Alisher Navoiy

*Bilmam, qanday tilsim, qanday sir, So‘z yo‘qoldi –
gungga aylandim. Tevarakka boqqancha sassiz, sukut
ichgan mungga aylandim. Yoppasiga so‘zlar etdi tark,
turnalarday bo‘lishdi g‘oyib. Tilsiz bo‘shliq quchdi dilni
talx, so‘z izladim o‘ksiz, mung‘ayib. Shu chog‘ ilkis tilim
chetidan sakrab tushdi yoqutday bir So‘z: “Men ketma-
dim ular ketidan – senga sodiq qolaman, ey Do‘st! Dadil
bo‘lgin. Tur, o‘rningdan qalq, bizni kutar uzoq yo‘l hali.
So‘zlasa bas ko‘ksingdagi qalb, uning so‘zi riyodan xoli...”*

*Ikkilandim. Holimga boqsam, undan boshqa sirdoshim
yo‘q hech. Shubha-gumon sari uloqsam, u ham ketar – ke-
yin bo‘lar kech.*

*“Mayli, berdim qismatimga tan, yo‘l boshlagin – sen-
dadir izmim. Faqat... avval So‘z Sohibidan birgalikda
so‘raylik izn...”*

Avvalgi soʻz: IZN

Avvalboshda Soʻzni yaratib,
Jilo berding bittalab Oʻzing.
Koinotga yogʻdu taratib,
Hayrat sochdi har bitta soʻzing.
Har soʻzingdan kengaydi olam,
Ortaverdi borliq zalvori.
Nedir – hali anglamasa ham,
Soʻz soʻradi hamma yolvorib.
Samovotni bosdi mast yigʻi...
“Sadafi bor Soʻzlarning!” – deding.
Soʻng Odamni yaratib, yigʻib
Soʻzlaringni, birma-bir berding.
Novvot kabi solding tiliga,
Shimsin, deya, bilsin mazasin;
Naqsh aylasin Soʻzni diliga –
Soʻzga hayot berib yashasin...
Soʻzlaringni oliy tugʻ qilib
Oʻtdi mayoqkoʻngil insonlar.
Yangi soʻzlar bir-bir tugʻilib,
Ranginlashdi goʻzal lisonlar.
Jamol ochdi oʻzbekiy tilim –
Bu dunyoga aytar soʻzim bor!
Soʻzim bormi, demakki, dilim,
Jonim, ruhim, yaʼni Oʻzim bor!

Garchi qurbim yetmas, yo‘q quvvat
Arzigulik bir so‘z demakka.
Tirishaman baholi qudrat
Biror so‘zga hayot bermakka.
Toki haq kun huzuringda zor,
Bejon qotib, turarkanman gung,
Shu tirik So‘z aytsin istig‘for,
Mening uchun yig‘lasin yum-yum...
Hozir esa, izn ber, shu So‘z
So‘ylamoqchi menga hikoya.
Ergashaman ortidan so‘zsiz,
Ergashaman misoli soya.
Zora, buloq kabi yumilgan,
Qumlar bosgan ko‘zim ochilsa:
Ko‘zyosh to‘ksam – yana yuvilgan,
Gard qoplagan so‘zim ochilsa.
O‘zing qo‘lla!
Yiqilsam – nomus...
So‘z topolmay, to‘lg‘onar ohim.
Shukr, ziyo sochdi uch fonus:
Bismillahir rohmanir rohim!

Yo‘lga chiqdik. Tog‘ni ko‘rsatib So‘z so‘radi: “Nima bu, o‘rtoq?” Ensam qotdi, dedim kesatib: “Igna emas, har holda, bu – tog’!” So‘z jilmaydi: “Yo‘q, tog‘ emas bu... Bu – cho‘zilgan, zalvorli oyat. Yo‘l tanobin guring tortar-ku, tingla, aytay, senga hikoyat...”

Ikkinchi soʻz: OCHUN

Olam, asli, soʻzdan iborat,
Olti tomon va toʻrtta unsur –
Soʻzdan bino boʻlgan imorat,
Izlab topa olmaysiz qusur.

Metin soʻzdan yaralgan togʻlar,
Sharqiroq soʻz oqar daryoda.
Yashil soʻzni yuksaltar bogʻlar,
Soʻz jivirlab yotar sahroda.

Kiyik emas qochgan – hurkak soʻz,
Fil emas bu – vazmin soʻz, ayon.
Yoʻlbars demang – yovqur soʻz, shaksiz,
Zaharli soʻz – qoraqurt, chayon.

Aqlli soʻz, shubhasiz, Odam,
Jonli-jonsiz soʻzlar sarvari.
Lek... aqlidan ayro tushgan dam
Qulaydi u tuban soʻz sari.

Koʻkni bezab turgan yulduzlar –
Bu olamda mangu mayoq soʻz.
Har soʻz mudom oʻzini izlar,
Har mavjudot – sirli, sayyoh soʻz.

Hech kim boqiy qolmaydi bunda,
Fursat yetsa, hamma qo'zg'olar.
Tirik so'zga tashna ochunda
Ma'nosini topgan So'z qolar...

*“Demak, izlar har kim ma'nisin, pinhon erur o'zlik
javhari. Kim o'zini ichdan tanisa, chekinadi to'siqlar bari.
G'oyib bo'lar dag'al pardalar, uziladi zanjirlar qat-qat.
O'char zulm, g'azab, zardalar – tug'iladi toza muhab-
bat...”*

Uchinchi so'z: MAVLUD

Balki, sizga tuyular erish,
Haqiqat shu:
Bu So'z – ikkiqat!
Garchi yo'qdir boshida eri,
Maryam kabi pokiza xilqat.

Ixlos ahli tushungay uni,
(Imonimiz saqla, Rabbano!)
Tug'ilajak, to'lgach oy-kuni,
Masih kabi xaloskor Ma'no!

U dunyoga kelgani hamon
Malham bo'lgay yetim-muhtojga.

Faqat uni johil olomon
Mixlamasa ayovsiz xochga...

Sudramasa hislar havoyi,
Munkir hirsalar toshlar otmasa.
Etagini tutgan havoriy
Kalimalar pinhon sotmasa...

Ka'ba kabi yuksalar Ma'ni,
Tasbeh misol aylanar so'zlar.
Ko'rmaysiz hech yot kalimani –
Zikr dilga daricha izlar.

To'siq bo'lar na din va na til,
Yaxlitlashar ko'ngil olami.
Anglagaymiz hammamiz yakdil
Yakka-yolg'iz Voiz kalomin...

*“To'g'ri, – dedim, – xaloskordir So'z – hikmat bilan
to'lsa botini. Ming vovaylo, dunyoda, afsus, Ma'noning ham
ko'pdir qotili. O'lja izlab izg'iydi besar, o'z ishidan zavq
tuyar g'oyat. Agar ranjib qolmayman desang, so'ylayman
bir ezgin hikoyat...”*

To'rtinchi so'z: QOTIL

U so'zlarni so'yadi pinhon,
Jon beradi so'zlar hirqirab.
Jilmayadi (ust-u boshi qon)
O'layotgan so'zlarga qarab.

O'z qatlini kutadi qator
Qafaslarga solingan so'zlar:
Qay biri jim – yotar bemador,
Qay biri-chi, yulqinib bo'zlar.

Qilt etmas u,
Bezrayar mamnun,
Qalbi – qotib qolgan qayroqtosh.
Pichog'ini qayraydi kun-tun,
Kundasiga so'zlar qo'yar bosh.

Murg'ak so'zlar bo'ladi nobud,
Keksa so'zlar o'ladi bir-bir:
Kerak emas ularga tobut,
Kerak emas ularga qabr.

Aza ochib, tutilmas motam –
Hech kim kiymas na ko'k va na oq.
Dunyodagi birorta odam
Bel boylamas so'zlar o'lgan chog'.

U biladi buni...

Dasti qon –

Bo'g'izlaydi so'zlarni qo'yday.

Yozsa hamki elga dasturxon,

Qovurilgan so'zlarni qo'ygay.

Oh, Xudoyim,

Panoh ber menga,

Asra o'zing ul g'ayir ko'zdan.

Umid bilan keldim zaminga,

Men odammas, men, axir, So'zman...

So'z mung tortdi. Asta tortinib dedi: "Esga tushdi eski g'am. Sen so'ylagan o'sha qotilning changaliga tushgandim men ham. Bir amallab qutuldim, shukr, yo'liqmadim unga qayta, bot. Lek uzlatga chekindim tushkun – ranglarini yo'qotdi hayot..."

Bosh irg'adim: "Menga ham ayon, so'zlar borki – to'zg'igan soya: zamirida zaif tortgan jon... Kel, shu haqda qilay hikoya..."

Beshinchi so'z: SUIQASD

Qayga qochmay, qayga bekinmay,

Noxush xabar kelar basma-bas:

Olis-yaqin yurtlarda tinmay

So'zlar qilar o'z joniga qasd.

Qaysi soʻzda charchagan asab,
Shovqin ichra aqldan ozgan:
Mikrofondan baland dor yasab,
Tokli simga oʻzini osgan.

Qay kalima alam komida
Tubanlarga tikib koʻzini –
Qirq qavatli kitob tomidan
Pastga qarab otmish oʻzini.

Men ham kecha yoʻlda, rosti gap,
Bejon soʻzning yotganin koʻrdim.
Guvoh dedi: “Moshin ostiga
Oʻzin atay otganin koʻrdim”.

Bu qandayin qaygʻuli maslak?
Bu qandayin dard jilvalari?
Nega soʻzlar bizlarni tashlab
Ketayapti sukunat sari?

Javob qildi menga shu zahot
Minoraga naqsh boʻlgan kalom:
“Soʻzlay olmas boshqa hech jonzot,
Sizdan esa... toliqdik tamom!”

“Ha, zerikdik... – dedi So‘z beruh, – ammo boshqa na choramiz bor? Shukr, Ma‘no quch-quvvat berur – yashagimiz keladi takror...”

“Haq, rost, – dedim, – laziz juda jon, insonlar ham bordir xo‘b, sara – so‘zlar bilan yasbar jonajon... Huv, bit-tasi kelyapti, qara...”

Oltinchi so‘z: PIYODA

Yaxshi tanish menga bu odam,
Yo‘l bosadi har kun piyoda.
Garchi bordir mashinasi ham,
Garchi obro‘, sha‘ni ziyoda.

Sukunat-la sassiz kengashib,
Kezar yerga tikib ko‘zlarin.
Goho birdan to‘xtar... Engashib,
Olar yo‘lda yotgan so‘zlarni.

Manavi so‘z sut tishidek pok,
Biror bola og‘zidan tushgan.
Manavi so‘z cho‘g‘ kabi qaynoq,
Shaksiz, oshiq qalbidan uchgan.

Manavi so‘z rangi ko‘p zahil,
Xasta dilning ezgin nolishi.

Manavi soʻz ancha badjahl,
Tuflagandir puldorroq kishi.

Manavi soʻz juda serajin,
Yoʻqotgandir cholmi yo kampir.
Manavi soʻz chinlar ichra chin,
Kimdir yoʻlga koʻmib ketgan sir.

Manavi soʻz oʻlguday badboʻy,
Gʻiybatlarning sassiq qoldigʻi.
Manavi soʻz kuygan... Hasadgoʻy
Yuragida yongan qobigʻi.

Manavi soʻz billurday tiniq,
Xolis duo, zikrning qismi.
Manavi soʻz turar qimtinib,
Qaysi mohichehraning ismi...

Xullas, bir-bir terib olar u,
Uflab, artib, qoʻyniga solar.
Parda tortgach zulmat-qorongʻu,
Soʻzlar bilan yuzma-yuz qolar.

Shuʻla sochib turar har bir soʻz,
Taratadi shaʼn tuygʻularni –
Ochilganday goʻyo basir koʻz...
Sheʼr qiladi odam ularni!

Nahot, deysiz, bu sirli saslar
Kimlardandir qolmish to'kilib!?
O'qib qolsa endi ul kaslar,
Panalarda yig'lar o'kirib...

*Ta'zim qildi So'zga piyoda, Piyodaga so'z ham yukindi:
baxti bo'lgan kabi ziyoda, xalos bo'lgan misol yukidan...*

*"Battol emas odamning bari, qotil emas kimki qilsa ov.
Yur, boramiz Dildaryo sari..." – yetakladim, So'z ko'ndi
darrov...*

Yettinchi so'z: OV

Ko'ngil degan daryo bo'yida
Solib turar har kuni qarmoq.
Baliq so'zlar suzar o'yida,
Fikri ezgu – faqat qutqarmoq.

Suv qa'rida nahanglar kezar,
Sho'ng'ib yurar ochko'z yuholar,
O'lja isin olisdan sezar –
Yutilgan so'z tamom yo'qolar.

U so'zlarni birma-bir tutib,
Solsam deydi akvariumga –
Ya'ni she'rga... Bu shaffof quti
Najot bo'lib tuyular unga.

Soʻzlar esa Qaysdek qaysar,
Qarmoq insa, qochadi gurra.
Hur oʻlimni koʻradi afzal
Tor kulbada yashashdan koʻra.

Lek nasiba degan gap ham bor –
Uch-toʻrtta soʻz ilinar har kun.
Yashayverar yana umidvor
Hayotidan axtarib mazmun.

Tushida ham ov qilar, hayhot,
To tonggacha qizir ogʻir jang:
Qarmogʻiga ilinar bot-bot
Dunyodagi eng ulkan nahang!

*Soʻz tik boqdi: “Yashirma, sen ham goh-goh qarmoq
solib turasan. Dildaryodan quruq qaytgan dam omading-
dan nolib turasan...”*

*“Toʻgʻri, – dedim, – bu koʻp nozik jang, magʻlub uchun
yoʻqdir bahona... Hozir esa, qarshi boʻlmasang, bizni chor-
lar tomoshaxona...”*

Sakkizinchi soʻz: HUQQABOZ

Gir aylana, toʻgarak davra,
Hayrat ichra hamma hang-u mang.

Nigohlarni sehrlab, avrab
Ko'zboylog'ich ko'rsatar nayrang.

Cho'ntagidan cho'g'day so'z olib,
Odamlarning qo'liga tutar.
So'ng shu so'zni yengiga solib,
Bir silkisa – uchar kabutar.

Boshqa so'zning ostiga o'tin
Qalab olov yoqar ustma-ust.
So'ng "suf" deya so'ndirib o'tni,
Kul ostidan olar parcha muz.

Uzun so'zni yotqizib to'g'ri,
Qoq belidan tortadi arra.
Bo'linadi u bo'g'in-bo'g'in,
Sochiladi zarra va zarra

Va ustidan yopar-u belbog',
Silkitadi sirli tayog'in.
Sakrab turar chaqqon so'z – bebok,
Butun boshi, qo'li, oyog'i...

Davom etar tilsim-tomosh, a,
Mo'jizaga to'la sir sandiq.
Dillar hayron, aqllar shoshar,
Kovushini yo'qotar mantiq...

Hayrat ila tarqar olomon,
Huqqabozni Xizr chamalab.
Yolg'iz qolar...
Bo'lganday talon,
O'tiradi boshin changallab.

G'ijimlaydi to'zg'in sochini,
So'z topolmas – ovozsiz bo'zlar.
Tegrasida yotar sochilib
Kuygan, singan, yarador so'zlar...

*“So'z o'yini – eng sirli san'at, so'z ustasi – mohir
huqqaboz. Faqat ko'zni qilib shamg'alat, mohiyatdan
simg'almasa – soz...”*

*“Mohiyatga ko'zga so'zlar bor – sof go'shada yetar
voyaga. Afsus, ular e'tiborga zor. Kel, quloq tut shu hi-
koyaga...”*

To'qqizinchi so'z: JINOYAT

U qishloqda yurgan So'z edi,
Yashar edi elning og'zida.
Baxshi bilan yaqin do'st edi,
Yashnar edi uning sozida.

Bir kun qo'qqis yuragi siqdi,
Go'yo unga yetmasdi nafas:

“Bu yerlarda juda zerikdim,
Shahar sari yo‘l olaman, bas!”

Xeshlar bilan xayr-xo‘sh qilib,
Yo‘lga chiqdi erta saharda.
Mardikorlar bilan qo‘shilib
Yetib keldi azim shaharga.

O, ochildi sodda og‘zi lang
(Unga hayron tikildi ko‘zlar),
Gangib qoldi – qildi hang-u mang
Poson so‘zlar, olifta so‘zlar

Va, nihoyat, yig‘ib es-hushin,
Izlab ketdi biror qo‘nim joy.
Mashhur hofiz esiga tushdi:
“U bag‘riga olgay, hoynahoy”.

Katta kentda tentirab, ayni
Shom mahali manzilin topdi.
“Tanimayman seni, og‘ayni”, –
Hofiz shartta eshigin yopdi.

Ranjimadi, qilmadi ta’na,
Taqillatdi olim eshigin:
“Bizga kerak ilmiy atama –
Sen-chi, fanga yotsan, kechirgin”.

So'nggi ilinj – shoir...
Tantife'l,
Hotam deya qozongan u nom:
"Mayli, faqat, erta-indin kel,
Hozir esa yo'q sira ilhom..."

So'z izg'idi, hasratda to'zdi,
Taskini yo'q – ovozsiz bo'zlar...
...Bexos uning yo'lini to'sdi
Jinko'chada ajnabiy so'zlar.

Biri keskin sermadi pichoq,
Biqiniga biri musht soldi.
Cho'ntaklarin qilishdi-ku qoq,
So'z yiqildi – cho'zilib qoldi.

Nobud bo'ldi.
Odamlar loqayd,
Yotar biror daydi mast deya.
Qishloqda-chi, kuylaydi shu payt
Baxshi juda g'amgin marsiya...

*Men xo'rsindim: "Tanirdim uni, mol boqardik, o'ynar-
dik birga. U shaharga yo'l olgan kuni men ham taslim
bo'ldim taqdirga. Asrolmadim... Ha, zimmamda ayb, shu
ekan-da odamning holi: turaverar tilsiz mung'ayib, kuch-
lidir gob undan chumoli..."*



O'ninchi so'z: MASLAK

Chumolining ishini qarang
(Uvoqcha ham kelmaydi o'zi),
Yumalatib ketmoqda arang
O'zidan ham kattaroq So'zni.

Yo'lda kimlar qilmaydi daxl,
Pistirmada yotvolib poylar –
Tekintomoq, qaroqchi, baxil,
So'z o'g'risi bo'lgan gadoylar.

U hech kimga qilmaydi parvo,
O'ylamaydi mag'lubiyatni.
O'nqir-cho'nqir, chalkash yo'l aro
Mayoq qilgan yorug' niyatni.

Kurashadi, manzili uzoq,
Javob bermas hech kim sasiga.
Dumalatar, ters sudraydi goh,
So'zni eltar o'z uyasiga.

Yuksaltadi so'z xirmonin, rost,
Kunda shunday bir juft so'z to'ksa...
Hayron bo'lmang,
Bossangiz bexos,
Bir kun sizni odamday so'ksa!..

*“Quvvat bordir so‘z tiynatida – qumursqa ham dev-
ga aylanar. Nafis so‘zning zeb-ziynatidan oddiy tosh ham
durday shaylanar”.*

*Bosh silkidim: “Ha, so‘zda qurb bor, mag‘zidagi mal-
hamday g‘oya ta’siridan tuzalar bemor... Bu haqdamas
ammo hikoya...”*

O‘n birinchi so‘z: ESKI DARD

U yiqildi ko‘ksin changallab,
Yomon sanchdi yuragi bu kez.
Hamkasblar-u do‘stlar amallab
“Tez yordam”ga olib bordi tez.

Turfa asbob-uskuna ila
Tekshirdilar avra-astarin:
Jilla gumon qolmasin dilda,
Ne usul bor – qo‘llashdi barin.

Bosh chayqadi oxiri jarroh:
“Tig‘ tegmasa degandik, zora,
Havas emas bizgayam yormoq,
Ne qilaylik, yo‘q o‘zga chora...”

Chap ko‘ksini ochdilar kesib,
Pardalarni nozik tildilar.

Yurak degan olamni kezib,
Tomirlarni sayr qildilar.

“Yo Xudoyim!..”
Notanish hisdan
Jarroh so‘zsiz tilin tishladi.
Nafis qisqich bilan ohista
Nimanidir olib tashladi.

Yengil tortdi.
Chiqdi tashqari,
Chekdi. So‘zga majoli yo‘qdir.
O‘rab oldi do‘st-u xesh bari:
“Nima bo‘ldi, bir so‘z deng, do‘xtir!”

U jilmaydi:
“...Qutqarib qoldik,
Shafqat qildi Xudoning o‘zi...
Yuragining tubidan oldik
O‘ttiz yillik zanglagan So‘zni...”

“Ha, so‘zlar bor tig‘ kabi keskir, yuraklarga behis qadalar. To‘za qonni qilgaydir tez keir, tomirlarga tushsa maddalar. Shubhasiz, bu – Zulmatning ishi, so‘rib olgay so‘zlarning nurin, tong ufurgan shu‘lani shimib, joylaydi so‘ng qop-qora qurum...”

“Ombor kabi so‘z yig‘ar Yurak, farqi yo‘qdir ne bilan to‘lsa. Bir parcha til – beminnat kurak, olib chiqar unda ne bo‘lsa. Qadrli so‘z bir chetda turmas, yombi mangu qolib ketmas sir... Til qoraysa, demakki, durmas, yurakni zich to‘ldirgan ko‘mir...”

O‘n ikkinchi so‘z: QORA ISH

So‘z yig‘adi u mijoz kutib,
O‘z korini savobga yo‘yar:
Qorday oppoq so‘zlarni tutib,
Qora, quyqa ranglarga bo‘yar.

Kabutarday beozor kalom
Aylanadi zumda boyqushga...
...Oq so‘zini izlar beorom –
Kimdir zordir u boyoqishga.

Bu yoqda-chi, qoradil kosib
Qushlarini qo‘lma-qo‘l pullar.
Xaridorlar kelar munosib –
Qora so‘zga ishqiboz ular.

Yuraklari yig‘adi kuya,
Tomirlari tortar qora qon.
Ruhi – qora qushlarga uya,
Ongi – zog‘lar charx urgan makon.



Tunday qora, mubham qushlarni
O'qday otar ko'zlarga joylab.
Yaralaydi oppoq tushlarni,
Qorong'uda o'qrayar poylab.

Tipirchilar oq tilak nochor,
Oydin orzu potirlar halak:
Boyo'g'lilar cho'qilab qochar,
Tashlanadi quzg'unlar lak-lak.

Lek.. qo'qqisdan to'zg'iydi zulmat,
To'kiladi ko'kdan oq kukun.
Yoziladi yerga oppoq xat –
Adolatli, charog'on hukm.

Simurg' so'zi –
Xolis, hur, odil:
Oq qanotli so'zlar qutular.
Qora qushlar topmay murodin,
Qonga tashna bo'lib quturar.

Qahri qo'zib qaytar iniga,
Qora qismat xatin o'qiydi:
Sodiq qolib qora ishiga,
Egasining ko'zin cho'qiydi!

*“Ko‘rdim ig‘vo-bo‘hton yuqidan yuzi qora bo‘lgan
so‘zlarni, shu so‘zlarning og‘ir yukidan qaddi bukik qo-
rako‘zlarni...”*

*“Yaxshiyamki, oftobdillar bor, haqqa qalqon – mus-
tabkam qoya. Yuraklarga obkirgay bahor... Shu haqida
endi hikoya...”*

O‘n uchinchi so‘z: SAXIY

U saharlab chiqadi yo‘lga
Cho‘ntagini so‘zga to‘ldirib.
So‘z tutar har uzangan qo‘lga,
Uylarga ham o‘tadi kirib.

Sado berar: “Kimga so‘z kerak?
Tarqataman beto‘lov, tekin.
Faqat uni qilmaysiz ermak,
Uni uvol qilmaysiz lekin”.

Har bir so‘zga loyiq odam bor,
Kalima bor har kimsaga teng:
Kimgadir bir so‘z tuyular tor,
Kimgadir bir so‘z keladi keng.

Kim ulushin himmatga yo‘yar,
Rozi bo‘lmas kimdir oziga...

...Qandday shirin soʻz solib qoʻyar
Yigʻlayotgan bola ogʻziga.

Qatqaloq qalb yoʻliqsa tuyqus,
Soʻz quyadi suvday singguvchi.
Sovuq qotsa qay dilda tuygʻu,
Tomizadi soʻz – isitguvchi.

Koʻngli choʻkkan, siniqqan kimsa
Umidiga suyar tirkak soʻz.
Zimdan kimga xatar tikilsa,
Tuhfa qilar hushyor, sergak soʻz.

Yengil kaslar oʻpkasin bosib,
Zilday soʻz-la boylaydi poyin...
Soʻz uzatar, xullas, munosib –
Har bir soʻzning topadi joyin.

Soʻz ulashar kezib har yonni,
Qoldiradi yoniq soʻzli iz.
Shom mahali boʻshab hamyoni,
Qaytib kelar uyiga soʻzsiz.

Rafiqasi soʻzdan choy damlab,
Yonboshiga qoʻyar soʻzyostiqlik.
Farzandlarin davraga jamlar,
Soʻzbeklik dasturxon yozib.

Yashar mehr, ishqqa qongancha,
Ahil, totuv, inoq yashaydi.
Oilasi bilan tonggacha
Yana yangi so'zlar yasaydi!

"Ha, tanidim. Meni ham, o'zi, senga o'sha saxiy ulashgan. Ko'payadi kun sayin So'zi – zulmat yo'lin to'suvchi lashkar..."

"Rost, tonmayman, ulg'aydim durkun shunday botam insonlar bois. So'z yo'lida borarkan bu kun, ularga bosh egmog'im joiz..."

"Balli. Bu – hech ado bo'lmas qarz, kamsuqumlik – oqil xislati. Hammamizga bo'lgay achchiq dars havolangan so'zning qismati..."

O'n to'rtinchi so'z: QISMAT

U kitobda tug'ildi avval,
Juda sokin, vazmin so'z edi.
Xilvat joyni ko'rardi afzal,
Ma'no bilan yaqin do'st edi.

Bir kun ilg'ab qoldi qay muxbir,
Gazetaga ko'chirdi sudrab.
G'unchaladi mag'zidagi sir,
Ayon bo'ldi yashirin qudrat.

Nashrlarda bo'ldi qo'lma-qo'l,
Maqoladan xabarga ko'chdi.
Qog'oz uzra bosib uzoq yo'l,
Qanot qoqib chopdi-yu... uchdi!

To'lqinlarga ilashib, qarang,
Chiqib oldi zangor ekranga.
Endi har kun sochadi jarang,
Tuslanishni qilmaydi kanda.

Usiz o'tmas endi biror to'y,
Biror aza, biror marosim.
Hali kelmay fikr, xayol, o'y,
Ko'rsatadi darrov qorasin.

Ulfatlari o'ziday sergap,
Gap otadi, qilar tamanno.
Uni hech kim qo'ymaydi tergap –
Allaqachon tark etgan Ma'no.

Ohori yo'q siyqa libosi
Zo'rg'a yopib turar tanini.
Qo'zg'alganda eski ibosi
Eslab qolar kim ekanini.

Ayriladi shunda tinchidan,
Alamidan sochini yular.

Tushlarida... Kitob ichida
Ma'no bilan egizak yurar...

*Biz ham So'z-la egizak kabi yo'limizda etardik davom.
Ortda qoldi sabrolar — kabir, ortda qoldi necha bir dovon.
Va... duch keldik nogoh majlisga, anglamasdan qo'shib
qoldik. Berilgancha otashin hisga, chaynar edi bir so'zni
notiq. O'tirardi yuzlab qorako'z, qilt etmasdan na tuk,
na eti. Evoh, notiq og'zidagi so'z o'zgalarining saqichi edi...*

O'n beshinchi so'z: SIR

Har oqshom shu:
O'chganda chiroq
Uxlayman deb kirsam o'ringa —
Nimalardir o'rmalar, biroq
Chiroq yoqsam, hech ne ko'rinmas.

Yuguradi yuz, bo'ynim bo'ylab,
Goh qitig'im, goh g'ashim kelar.
“Nimadir bu?” — yotaman o'ylab,
Xayolimga kelmaydi nelar.

“Nahot, meni bosgan bo'lsa bit
Yo ko'rpamda ko'paygan burga?” —
Hammayoqni qilaman tit-pit,
Xotanim ham izlaydi birga.

Natija yo‘q.
Har tun shu ahvol,
Uxlayman deb kirsam o‘ringa,
Nimalardir o‘rmalar, alhol,
Chiroq yoqsam, hech ne ko‘rinmas

Va, nihoyat, bir kuni chaqqon
Hamla bilan tutvoldim birin...
Shundan buyon qiynoqdadir jon,
Shundan buyon chaqadi sirim.

Axir, kimga aytayin buni,
Aytsam, tag‘in ko‘paymasmi gap?
Mayda urchib yotgan qayg‘uni
Yolg‘iz o‘zim qanday qilay daf?

Bo‘ldi,
Sabrim tugadi, do‘stlar,
Yengil tortay, sirimni aytib:
...Yuragimga yetmagan so‘zlar
Qulog‘imdan chiqarkan qaytib...

*“Har bir odam, asli, So‘zsandiq, umr bo‘yi so‘z yig‘ar
inson. Kimdir o‘lsa, bu — bitmas chandiq, odam bilan
so‘zlar berar jon...”*

“So‘zdaryoga o‘xshar har elat — millat to‘zsa, tili ham

*o'lik... Boshiga shum savdolar kelar... Shu to'g'rida tingla
bir o'tuk¹...*

O'n oltinchi so'z: KO'MCHU²

Shahar cheti. Tush. Terlab-pishib,
Qadimshunos qiladi emgak³.
O'ra kovlar... Uning bu ishi
Kimlargadir tuyular ermak.

Kimdir kular: "Bu dalli odam
Yer tubidan izlaydi ko'mchu..."
Parvo qilmas pichingga hech ham,
Avut-avut⁴ tuproq elar u.

Avom gapi bo'lmaydi evshuk⁵,
Alinidan⁶ oqar reza ter.
Moziy sari axtarar eshik,
Bag'rin ochar unga Ona Yer.

Goh ivriqqa⁷ duch kelar hayron,
Goh chiqadi sirli sirichg'a⁸.

¹ O'tuk – ertak, hikoya.

² Ko'mchu – xazina.

³ Emgak – mehnat.

⁴ Avut – hovuch.

⁵ Evshuk – to'siq.

⁶ Alin – peshona, manglay.

⁷ Ivriq – ko'zacha.

⁸ Sirichg'a – shisha.

Tasavvuri bilmaydi poyon –
Yetsam deydi olam siriga...

Tark etmas hech qalbini tamkin...
...O, izrikka⁹ tegdi cho‘kichi.
Ulkan ukak!¹⁰ Egildi tarkin¹¹,
Ochdi: so‘zga to‘ladir ichil

Tovlanardi ukil¹² kalima,
Tovlanardi besado tilsim.
Qadimshunos lol edi...
“Nima,
Yo‘qotdingmi, ey odam, tiling?!”

Sado berdi uzug‘¹³ So‘z nogoh:
“Rahmat senga, ey sodiq sag‘dich¹⁴.
Yutgan edi bizni tubsiz choh,
Yotgan edik bezovta, notinch...

Aslida-chi,
Na tas¹⁵, na armon,
Bilmas edik – shonimiz ulug‘.

⁹ Izrik – qattiq narsa.

¹⁰ Ukak – sandiq, tobut.

¹¹ Tarkin – tez, darrov.

¹² Ukil – ko‘p.

¹³ Uzug‘ – hushyor.

¹⁴ Sag‘dich – do‘st, o‘rtoq.

¹⁵ Tas – yomon, past narsa.

Eltar edi bizni zo‘r karvon,
Har tevada – bebaho ag‘ruq¹⁶.

Yo‘l bosardik aqrin¹⁷ va tekis,
Yo‘l bosardik xotirjam, bedard.
Bilar edik – yo‘limiz cheksiz,
Ortimizda qolib sonsiz art¹⁸.

“To‘xtang!” – dedi bir kun qulavuz¹⁹,
Ko‘p yo‘l yurdik, tiklang alachu²⁰.
Bunda birpas o‘ynab-kulamiz,
Bitganmi hech yo‘lning chalasi?!”

Oyoq ildik. Ochildi xumlar,
Bir lahzada bo‘ldi el esruk²¹.
Go‘yo ozod bo‘lgan mahkumlar
Yelkasidan tushgan kabi yuk.

Navolandi quvnoq ikama²²,
Ko‘ngillarda mastona o‘rkuch²³.
Maslagini unutdi hamma,

¹⁶ Ag‘ruq – yuk, mol.

¹⁷ Aqrin – sekin.

¹⁸ Art – dovon.

¹⁹ Qulavuz – yo‘lboshlovchi.

²⁰ Alachu – chodir, boshpana.

²¹ Esruk – mast-sarxush.

²² Ikama – bir turli cholg‘u.

²³ O‘rkuch – mavj, to‘lqin.

Asir etdi makkor kundi²⁴ kuch

Va o'rtada qo'pdi zil irtash²⁵,
Guvazlikdan²⁶ buzildi kudan...²⁷
Quyun qo'pib, quturdi-ku dasht,
Go'yo devlar qalqdi uyqudan.

Ostin-ustin bo'ldi archilar²⁸,
Hammamizni yamladi tublu²⁹.
Holimizga kim ham achinar –
O'g'an Ezi³⁰ jazosidir bu.

Ko'kka uchib ketdi tinimiz³¹,
To'zg'ib ketdi bebaho o'kma³².
Uyukti³³ suyukli tilimiz,
Sumlimlarga³⁴ to'ldi bu o'lka.

Shukr, yana yorishdi o'zlak³⁵,
Yana chiqdik jumla-jahonga.

²⁴ Kundi – past, razil.

²⁵ Irtash – talashish, tortishuv.

²⁶ Guvazlik – taltayish, mag'rurlanish.

²⁷ Kudan – ziyofat.

²⁸ Archi – to'rva.

²⁹ Tublu – go'r, qabr.

³⁰ O'g'an Ezi – Qodir Xudo

³¹ Tin – ruh, jon, nafas.

³² O'kma – to'planma, jamlanma.

³³ Uyukti – ko'mildi, botdi.

³⁴ Sumlim – turkiycha bilmaydigan kishi.

³⁵ O'zlak – zamon.

Ujuk-ujuk³⁶ tirildi soʻzlar –
Vujudimiz qovushdi jonga...”

Qadimshunos lol edi hanuz,
Abaqiday³⁷ turardi qotib.
Quyosh – eski tilla tanga tus –
Alvon koʻlga borardi botib...

Bir sandiq soʻz – koʻhna oʻrunchaq³⁸,
O, kimlarga oling deb tutdi.
Qiziqmadi hech kimsa uncha,
Soʻng... ularni bittalab yutdi.

Shundan buyon bu moʻlak³⁹ odam
Mungʻan⁴⁰ boʻlib, sayraydi biyron.
Garchi uni tinglasalar ham,
Tushunmaydi birorta inson...

*“Qancha soʻzlar bor edi chapdast, tildan tilga uchar edilar.
Savlat toʻkib turarkan gapda, safdoshini quchar edilar...”*

*“Bugun-chi, yoʻq, bermaslar sado, umrlari topmish nihoya.
Tannoz soʻzlar qildilar ado... Shu haqdadir gʻamgin hikoya...”*

³⁶ Ujuk – hijo, boʻgʻin.

³⁷ Abaqi – koʻz tegmasin uchun qoʻyiladigan poliz qoʻriqchisi.

³⁸ Oʻrunchaq – omonat.

³⁹ Moʻlak – tinch-ogʻir kishi.

⁴⁰ Mungʻan – sergap, ezma.

O'n yettinchi so'z: G'AMGIN HIKOYA

Birga o'sdi ikki jondosh so'z –
Yaralgandi bitta o'zakdan.
Tutindilar qiyomatli do'st,
Yasholmasdi ayri, uzoqda.

Bog'lab turar edi bitta son,
Bitta turkum, bitta kelishik.
Arazlashib qolsalar, oson
Ketardilar darrov kelishib.

Bir jumlada chopib izma-iz,
Zichlar edi ma'no ta'sirin –
Ayiruvchi so'zlar kelsa, tiz
Cho'kmay, birga berib ta'zirin.

Sirlashardi sahifa bo'ylab,
Kezar edi mudom juft soya.
Yashardi bir maslakni o'ylab,
Sof do'stlikni qilib himoya.

Ammo bir kun o'zga lisondan
Kirib keldi bir satang kalom.
Biri ko'rib qoldi... Shu ondan
Oromini yo'qotdi tamom.

Endi tez-tez hamrohini u
Chalg'itgancha etar edi tark.
Tanho o'zi simirib qayg'u,
Bo'lar edi anduh ichra g'arq.

Tushunmasdi sherigi sira,
So'z so'rasa – siniqardi jim.
Ahvolini o'ylab, xavfsirab,
Pinhon yerdi u ham ich-etin...

Bir kun tamom yo'qoldi do'sti,
Izladi zor: qayda, kim bilar?
Mash'um mish-mish yo'lini to'sdi:
Qochib ketmish satang So'z bilan!

To'rt tomonga yoyildi g'iybat,
Shum kulgilar bag'rini ezdi.
Chidolmadi, qiynalib behad,
So'roq (?) bilan tomirin kesdi.

U yoqda-chi, makkora tannoz
So'rib oldi oshiq jonini.
So'ng tap tortmay, kechib ketdi voz,
Gapga ko'mib ustuxonini.

Shundan buyon ko'nikdi barcha,
Ikki sirdosh beiz yo'qoldi...

...Bizning esa sharmandalarcha
Kunimiz shu satangga qoldi...

Kuldim: "Og'ir muhabbat dardi – u so'zning ham olarkan esin..."

"Muhabbat shu bo'lsa agarda, uni qashqir, bo'rilar yesin!"

Qalqib tushdi yo'l yoqasida qo'l ushlashib turgan yigit-qiz. Visol-hijron chorrahasida so'zlashardi yuzma-yuz, unsiz...

O'n sakkizinchi so'z: OMONAT

– So'z ber menga,
Bergil menga so'z! –
Javdiraydi bir o'ksik nigoh,
Javdiraydi o'tinch to'la ko'z,
Ne deyishni bilmayman men, oh.

Nima qilay?
Qanday chora bor?
Qay puchmoqqa bekitay o'zni?
Axir, qayta topmog'im dushvor –
Yo'qotganman u bergan So'zni...

*Dilni ezdi ushbu tillashuv, o'n soniya zo'rg'a kuzatdik.
Yo'limizdan chiqqan so'zni shu yigit bilan qizga uzatdik.*

*"Ko'p yo'l yurdik, qolmadi mador – tuz totmadik,
qaislashdi jon..."*

*"Zap pazanda bir tanishim bor, bizni siylab, qilgay u
rehmon..."*

O'n to'qqizinchi so'z: PAZANDA

U bozorga borar ertalab,
Yangi, barra so'z sotib olar.
So'ng qozonga so'zdan o't qalab,
Eng mazali so'zlarni solar.

So'z qaynaydi uzoq biqirlab,
Har bitta so'z go'yo sayraydi.
Pishgach, unga tekkizsangiz lab,
So'z ta'midan ko'ngil yayraydi.

So'ngra sarxil so'zlarni solib,
Banka yopar – yeydi qish g'amin:
Qahratonda so'z-sassiz qolib,
Gung misoli g'o'ng'illar zamin.

Tayyorlaydi so'zlardan qoqi,
Muzxonaga g'amlaydi mo'l-ko'l.

U biladi, bir kun yutoqib
Hamma unga uzatadi qo'l.

Shaksiz, siz ham ochiqib rosa,
Tashnalikdan taningiz idrab –
Uzatasiz unga bo'sh kosa
Umid bilan, qo'lingiz titrab.

Shunday ekan, toki fursat bor,
Ko'maklashing beg'araz, tekin:
So'zni asrang... Yana hosildor,
Toza navli so'zlarni eking.

Hech bo'lmasa, uning boshida
Zulmat bo'lib qilmang qorong'u.
Sham yoqay deb ketsa, oshiga
Yeng uchida qotmangiz og'u...

"O'ylab ko'rsam, yoshlik chog'imdan Hayot meni siylabdi tamom. Lekin o'zim dil o'chog'ida pishirdimmi bir shirin taom? Hech bo'lmasa, zo'r pazandaga obkeldimmi biror masalliq? Menday lavang bir arzandaga kim beradi endi tasalli?"

O'ylarimni ilg'aganday jim, yetgan kabi tilsim-asrorga – go'yo oshkor bo'lganday ko'nglim, So'z boshladi meni bozorga...

Yigirmanchi soʻz: SOʻZBOZOR

Qizib yotar koʻhna soʻzbozor
Yaxshi-yomon soʻzlar choʻgʻidan.
Oluvchidan sotuvchi bisyor –
Bir-birini tinmay choʻqigan.

Kimdir olib chiqqan oʻz soʻzin,
Bir burchakda sotadi halol.
Ayyorona qisgancha koʻzin
Paydo boʻlar yonida dallol.

Olibsotar kaslar bor yana,
Darrov ilgʻar, yetar qaydan naf.
Jagʻi bilan – sotar chakana –
Yirik soʻzni mayda-maydalab.

Kun koʻradi soʻzboʻyamachi
Safsataga yorliqlar taqib.
Garchi bilar, holi ayanchli,
Soʻzsinchilar qiladi taʻqib.

Oʻgʻrilar-chi, kezar chekkalab,
Kuppa-kunduz chiqishgan ovga.
Oʻzgalarning soʻzini talab,
Pullab qochar arzon-garovga.

Sara, asil soʻzlar bor... Jilo
Sochar oltin, olmos misoli.
Kimdir xarid qilar yuz kilo,
Kimdir zoʻrgʻa olar misqolni.

Soʻz bozori qiziydi, toki
Ohanrabo soʻzlar bunda jam.
Xaridorin topar hattoki
Chirib-aynib ketgan soʻzlar ham.

Soʻzfurushmiz hammamiz, ha, rost
(Yoʻq deb elda kulgi uygʻotmang),
Faqat, sizdan bitta iltimos:
“Vatan” soʻzin hech qachon sotmang!

“Mol sotadi savdogar dunyo, narx qoʻyadi kaftin ishqalab. Qargʻar, kimki boqmasa qiyo, moʻzoriga pishiq gʻisht qalab. Lekin dunyo rastalaridan yuksakroqda oliy soʻzlar bor. Ozod egri dast talaridan, koʻrgay uni kim boʻlsa Bedor...”

“Ha, bu — bor gap, — dedim men xushbol, — el-u ulus guvoh boʻldi, doʻst: yuraklarni qildi-ku ishgʻol shiddat bilan koʻchgan Bedor Soʻz...”

Yigirma birinchi soʻz: BEDORLIK

Jarangladi birdan Bedor Soʻz
Turgʻun soʻzlar tinchini buzib:
“Keng dunyoga ochajakmiz yuz,
Berk lugʻatni oshkora tuzib.

Soʻzdan qoʻrqsa soʻzlar, bu – dahshat,
Soʻzlar yesa bir-birin magʻzin;
Soʻz oldida qaltirab-qaqshab
Gʻoyib boʻlsa soʻzdagi mazmun...”

Soʻzlar qalqdi:
Hurlik, Adolat,
Yangilanish, Tashabbus, Bardosh,
Fidoyilik, Gʻayrat, Sadoqat,
Doʻstlik, Shafqat, Oqibat, Qardosh...

Gʻijinsa-da xoin, kir soʻzlar:
Hasad, Qullik, Loqaydlik yangligʻ –
Tilin yogʻlab, dilin xaspoʻshlar,
Sezar – xufya rejasi yanglish.

Hukmfarmo loflar bor chetda,
Toʻzgʻitsam der inoq jumlani:
Oʻz gʻoyasi boʻlsa har betda,
Sarlavhani u qoʻysa yaʼni...

Ming shukrki, Azal Kotibi
Har biz soʻzni qoʻyar joyiga.
Kimki riyo mayin totdimi –
Tiz choʻkadi Mantiq poyiga.

Tinim bilmas bir zum Bedor Soʻz,
Azon aytar, chalar qoʻngʻiroq.
U biladi: yumildimi koʻz,
Manzil qochar tobora yiroq.

Ildamlaylik!
Soʻz dovonida
Koʻkka yondosh xitob boʻlaylik.
Kitoblarning hur javonida
Qadri baland Kitob boʻlaylik!

*“Bunday oliy Kitobda bitik boʻlmoq uchun arziyish
shart, beshak”.*

“Buning uchun ne lozim?”

*“Biqiq qoliplardan qutulmoqlik shart! Hur soʻzlar-
dan tizilsin jumla, fikr boʻlsin riyodan xoli – ozod soʻzlar
tuzsin anjuman, hukm boʻlsin samimiy, xolis...”*

Yigirma ikkinchi soʻz: OZOD SOʻZ

U tutilar shunday, tuzoqsiz,
Ichdan chorlang – kellar har kuni.
Na izohli va na izohsiz
Lugʻatlardan topgaysiz uni.

Ozod soʻz u – biror kimsa yo
Narsalarga bandi boʻlmagan.
Tashviqotdan tashqari dunyo,
Qizil rangga bangi boʻlmagan.

Navoiyga yukingan, beshak,
Koshgʻariyning oʻpgan izini.
U – Boburning tojida bezak:
Hur ruhlarga berar tizginin.

Siz ham erkin olsangiz nafas,
Tilingizdan yechilsa tushov,
Qoʻlingizda boʻlmasa qafas,
Poyingizda toʻzgʻib ketsa gʻov –

Oʻz-oʻzidan boʻladi paydo,
Tegrangizda aylanar gir-gir.
Goʻyo sizga boʻlgan-u shaydo,
Qoʻnsam deydi qoshingizga bir.

Yo‘q, haydamang,
Dam olsin birpas,
Hali ezgu safari uzoq.
Ozod bo‘lsa qayda bitta shaxs,
Huzuriga uchgaydir shu chog‘.

Hozircha siz zavq oling undan,
Hurligini qiling tomosha.
Boshqalarni ham shunga undang,
Ko‘zingizdan hayratlar tosha.

Boshingizga qo‘ngan Humo – shu,
Baxtingizdan bermish u nishon.
Demak, sizni yamlamabdi shum
Qora ro‘zg‘or...
Ey ozod Inson!

*Men his etdim, nima uchun So‘z olib chiqmish meni
safarga – u istaydi: mendagi kam-ko‘st yitsin, kiray masrur
saflarga...*

*“Ha, yetibsan niyatim anglab, borliq maqsad bilan
tirikdir. Endi pishiq so‘zlarni tanlab, o‘zing uchun bir li-
bos tiktir...”*

Yigirma uchinchi soʻz: LIBOS

Soʻzdan tikmish oʻziga libos,
Soʻz kiyadi doim... Qiyini,
Oʻzgarsa-da bahor, qish, kuz, yoz,
Oʻzgarmaydi uning kiyimi.

Bir libosda toʻzgʻitib borar
Xuruj qilgan vaqtning lashkarin:
Ochiladi tusi tobora,
His qiladi koʻrkamlashganin.

Tegrasida odamlar tez-tez
Yangi chiqqan soʻzlarni qiyib
(Tuslanishni qoʻmsab qolgan kez),
Oʻzlariga bicharlar kiyim.

U biladi barini zimdan:
Oʻtar ekan xaloyiq aro,
Kulib qolar ortidan kimlar,
Egnin qoqar – qilmaydi parvo.

Taʼsir qilmas omma bosimi,
Oʻz yoʻlidan boradi tikka –
Egnidagi yolgʻiz libosin
Xudo bergan soʻzlardan tikkan.

Shu boisdan avaylar juda,
Shu sababli qilar ehtiyot:
Tanishlari so‘rar – behuda...
Orzu qilmas hatto yetti yot.

Chunki jondan so‘ralganda boj,
Chorlaganda Tangri imosi
Hamma qolgay nochor, yalang‘och –
Yashnab turar uning libosi!

“Qoyil! – dedim. – Yuz bora qoyil!”

Yana tilim biyron so‘yladi!

*“Ulkan baxtga bo‘lding sen noil, so‘zdan endi hatto
ko‘ylaging!”*

“Sen-la safar bo‘ldi maroqli. Rahmat...”

*“Sen ham baxtga bo‘lgin yor. Yaqinlashdi manzil-ma-
rohil, yo‘l so‘ngida ne tilaging bor?”*

Yigirma to‘rtinchi so‘z: UY

Menga shinam uy qurib bering,
Metin so‘zdan qo‘yingiz tamal.
Pishiq so‘zni g‘isht kabi tering,
Shohbayt kabi bo‘lsin mukammal.

Nafis tashbeh bo‘lsin gulqog‘oz,
Timsollardan yasalsin ustun.

Qofiyali ayvon bo'lsa – soz,
Ma'no bilan yopingiz ustini.

Uyim bitsa,
Ko'zlarim porlab,
Tomirimda so'zday oqur qon.
Do'st-u yorni mehmonga chorlab,
Shirin so'z-la qilgayman mehmon.

Balki, bu so'z kimgadir yoqmas,
Balki, g'alat tuyular fe'lim:
“Uy ko'rdi”ga buyum-matohmas,
Biror yangi So'z olib keling!

Adashsangiz,
Bo'lmang betoqat,
Yo'l ko'rsatgay uyim bilganlar.
Manzilimni topgaydir faqat
So'zga xolis xizmat qilganlar!

*Xayrlashdik So'z bilan uzoq, har kim aytdi dildagi
rozin. U jilmaydi: “So'rasang, shu chog' yuragimda bor bit-
ta orzum. Yolvoraman So'z Me'moriga – xayolimda yo'q
boshqa xohish – sen tilagan Uy devorida bo'lib qolay men
ham bitta g'isht!”*

*Hayajondan dil qalqdi yakbor – hayratlandim So'z
tilagiga. U menga qo'l silkib so'nggi bor, tushib ketdi*

*ko'nglim tagiga. Koshki, yana u bilan qolsam – u o'zimni
qaytarib berdi: oh, qay so'zni tilimga olsam, "Shukr" bo'lib
jaranglar endi!*

Oxirgi so'z: SHUKR

So'z Sohibi,
Azal Kotibi,
Dil tubiga tushdi qatim nur.
Bir so'z ila qilgum xotima:
Shukr, shukr va yana shukr!

Yayrab sezdim so'zning ta'mini,
So'zdan libos kiydim-ku bir qur:
Raso qilding egri ta'bimni –
Shukr, shukr, o'n bora shukr!

Anglab yetdim:
Har bir so'z – tirik,
Chig'anoqda bekinganday dur,
Ma'nosini avaylar tiniq...
Shukr, shukr, yuz bora shukr!

Kengaymoqda ko'zim gavhari,
So'z tubiday qarog'im chuqur –
Ishqing bilan to'lmoqda qa'ri...
Shukr, shukr, ming bora shukr!



Ozod soʻzga hamroz aylading,
Raqs samo qildim soʻz-la hur.
“Shukr” degan soʻzga aylandim –
Shukr, shukr, toabad shukr!!!

2018-yil, oktyabr

Mundarija

Izhor	3
Topmadim	5
Miskin.....	7
Qishloq.....	8
Vido	9
Sevgi	10
Ichikish.....	12
O'yin.....	12
Masofa.....	15
Beslan	16
Telefon	18
Tilsim.....	18
Ko'zgudagi ayol.....	19
Yosh to'kasiz... ..	19
Sayr	20
Xayr	22
Chiroylisiz... ..	23
Tashrif	24
Qo'ng'iroq	24
Xat	25
Maktub	29
Chechak	34
Uyqu	36
Binafshanafaslim.....	37
Talabalik qissasi.....	39
Qamish.....	43
Muzqaymoq.....	44
Ta'til	46
Ortiq bobo.....	48

Birinchi qor.....	50
Boychechak.....	50
Qalqon	51
Shumxabar.....	51
Rafiqa.....	52
Navoiy	55
Zidlov	58
Hayot qonuni	58
Gul.....	59
Tashbehlar	59
Ruh	60
Ko'rdim.....	62
Dadam.....	63
Aya	64
Qaytish	66
Chiroq	67
Bir kasallik tarixi	67
Falsafa.....	69
Bitim.....	70
Qozon she'ri.....	72
Yurak tili.....	75
So'z (<i>doston</i>)	77

Adabiy-badiiy nashr

Nodir JONUZOQ

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Mahfuza IMOMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 24.03.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x84 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 101

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978-9943-6362-1-7



9 789943 636217